

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Psixologiya kafedrası

Qo'lyozma huquqida
UDK: 152.82.38

Mirzakarimova Azizaxon.

**MAVZU: “ZAMONAVIY O'QITUVCHINING IJTIMOIIY –
PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI (OLIIY TA'LIM PROFESSOR-
O'QITUVCHILARI MISOLIDA)”**

5A 110902-«Psixologiya» ixtisosligi magistrlik darajasini olish uchun

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

p.f.n dotsent M.Xalimova

Andijon-2013

**MAVZU: “ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING IJTIMOIIY –PSIXOLOGIK
HUSUSIYATLARI (OLIIY TA’LIM PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI MISOLIDA)”
REJA.**

Kirish.

1.BOB.O‘qituvchi psixologiyasi tadqiqot muammosi sifatida.

1.1. Eng qadimgi davrlardan o‘qituvchi, ustoz shogird va ularning jamiyatdagi o‘rni.

1.2. Sharq mutaffakirlari ustoz-shogird munosabatlari haqida.

1.3. O‘zbekiston va xorij psixologlari tomonidan muammoning o‘rganilishi.

1.4. Pedagogik faoliyatda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning psixologik jihatlari.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa.

2.BOB. Zamonaviy o‘qituvchining ijtimoiy –psixologik hususiyatlari

2.1. Zamoniyl o‘qituvchining psixologik qiyofasi.

2.2. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari

2.3. Pedagogik qobiliyat va uning psixologik xususiyatlari

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.

3.BOB. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ijtimoiy-psixologik qiyofasini baholash usullari va ularni taxlili.

3.1 Ta’limda psixologik tayyorgarlik tushunchasi va uni shakllantirish shart-sharoitlari.

3.2. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ijtimoiy-psixologik qiyofasini baholash usullari va ularni taxlili.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.

XULOSA.

TAVSIYA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR.

M U N D A R I J A

	Kirish.	
I -BOB	O‘qituvchi psixologiyasi tadqiqot muammosi sifatida.	7
1.1	Eng qadimgi davrlardan o‘qituvchi, ustoz shogird va ularning jamiyatdagi o‘rni.	7-12
1.2	Sharq mutaffakirlari ustoz-shogird munosabatlari haqida.	13-16
1.3	O‘zbekiston va xorij psixologlari tomonidan muammoning o‘rganilishi	17-20
1.4	Pedagogik faoliyatda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning psixologik jihatlari.	21-23
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.	24
II- BOB	Zamonaviy o‘qituvchining ijtimoiy –psixologik xususiyatlari	25
2.1.	Zamoniy o‘qituvchining psixologik qiyofasi.	25-31
2.2	Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari	32-40
2.3	Pedagogik qobiliyat va uning psixologik xususiyatlari	41-47
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.	48-49
III-BOB	Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ijtimoiy-psixologik qiyofasini baholash usullari va ularni taxlili.	50
3.1	Ta’limda psixologik tayyorgarlik tushunchasi va uni shakllantirish shart-sharoitlari.	50-56
3.2	Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ijtimoiy-psixologik qiyofasini baholash usullari va ularni taxlili.	57-98
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.	98-99
	Umumiy xulosalar va tavsiyalar	100-101
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati	102-103
	Ilovalar.	

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrga kelib juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarida tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qayg'urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvafaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-xunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muxim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining jaxon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning kelajagi bugungi avlodning naqadar o'qimishli, bilimdon, ma'naviy jixatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda inson ruxiyati qonunlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'rni benixoya kattadir. Ta'limning barkamol insonni jamiyatimiz uchun to'laqonli, faol shaxs sifatida shakllantirish samaradorligini yanada oshirishda psixologiya ilmi va uning amaliyotda to'g'ri yo'nalishga ega bo'lishi juda zarurdir. Xurriyat boy ma'naviyat va ruxiyat ilmidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanishini taqozo etmoqda. Mamlakatimizdagi avjud barcha o'quv yurtlari ta'lim-tarbiyani to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, shuningdek, faol, mustaqil xamda ijobiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi lozim bo'ladi. Xozirgi paytda respublikamizdagi yetakchi oliygoxlarning kafedra va laboratoriyalarida o'qituvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish yuqori malakali mutaxassislar tomonidan maxsus texnikalar bilan jixozlangan sharoitlarda ilmiy-tadqiqot ishlari samarali yo'lga qo'yilgan. Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o'z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o'z davrida "O'z - o'zingni bil!" degan shiorni o'rtacha tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga "o'z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil", degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

Tadqiqot maqsadi: Tadqiqot maqsadi shundan iboratki, Ta'limni takomillashtirish jarayonida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish omillaridan biri professor o'qituvchilarning zamonaviy psixologik qiyofasini taxlil qilish. Shuningdek, professor o'qituvchilarning psixologik xususiyatlarini nazariy va amaliy taxlil qilish orfali tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

1. Muammoning nazariy taxlillarini olib borish va o'rganilganlik darajasini aniqlash.
2. Professor o'qituvchilarning psixologik xususiyatlarini amaliy tadqiq etish.
3. Oliy ta'lim tizimi professor o'qituvchilarining psixologik pedagogik qiyofasini o'rganish.
4. Olingan natijalarni qayta ishlash va taxlillar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot farazi:

- Tadqiqotning ijtimoiy - psixologik muammo sifatida o'rganilishi asosida professor o'qituvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini asoslash imkoniyati yaratilishi mumkin.
- Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish professor o'qituvchilar faolligini oshirish asosida amalga oshirish mumkin.

Tadqiqot ob'ekti: Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy –psixologik hususiyatlarining o'rganish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy –psixologik hususiyatlarining nazariy va amaliy tadqiq etish.

Tadqiqot metodologiyasi: Prezident I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash bilan bog'liq konseptual nazariy va amaliy qoidalar, tarixiylik tamoyili, shuningdek, taraqqiyot yondashuvi (L.S.Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn, I.M. Sechenov, B.G. Anan'ev, V.S. Merlin, Ye.V. Shoroxova, I.I. Chesnokova), shaxs va tizimli yondashuvi tamoyillari asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari: Tanlangan muammoga oid ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, anketa, test, pedagogik tajriba natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy –psixologik hususiyatlarini dolzarb ijtimoiy psixolog muammo ekanligi nazariy jihatdan asoslanadi;

- “Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy –psixologik hususiyatlarini didaktik hamda psixologik imkoniyatlari aniqlanadi.
- O'qituvchi shaxsi psixologiyasining o'ziga xos jihatlarini taxlil etiladi;
- Mummaoni ijtimoiy psixologik jihatlarining alahida tadqiq etilishi va t'limni takomillashtirish uchun ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasida ijtimoiy, pedagogik psixologiya fani o'qituvchi va talaba faolligini oshirish va hamkorligini ta'minlash usullariga oid nazariy yondashuvlar, ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitildi. Shuningdek, pedagogik psixologiya fani talabalarning hamkorlik faoliyatini, mustaqil faoliyatini motivlashtirishni shakl, metod va vositalariga ega bo'ldi.

Ishning sinovdan o'tishi: Tajriba-sinov ishlari Andijon davlat universiteti pedagogika fakul'teti professor o'qituvchilari va talabalari bilan olib borilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi: Muallif tomonidan 2 ta ilmiy maqola va tezis respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida chop ettirilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi. Kirish, 3 bob, 8 bo'lim, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Ilovalar ishning so'ngida keltirilgan. Jami sahifadan iborat.

1.BOB.O‘qituvchi psixologiyasi tadqiqot muammosi sifatida.

1.1. O‘qituvchi psixologiyasining o‘rganilish tarixi.

Psixologlardan F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina, N.D Levitova I.V.Straxovlar pedagogik qobiliyatning ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatib berdilar.Ular o‘qituvchi bo‘lish uchun qandaydir bir yoki bir necha sifatlar yetarli emasligini va o‘qituvchi quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘lishini, yoki pedagogik qobiliyat strukturasiga kiradigan qobiliyatlarni ko‘rsatib berdilar. Bularga:

1. Didaktik qobiliyat- o‘qituvchining talabalarga yangi bilimlarni, informatsiyalarni tushunarli qilib bayon qilishi;
2. Akademik qobiliyat - o‘qituvchining o‘zi o‘qitadigan predmetiga oid va unga bevosita kerak bo‘lgan fanlarni bilishga bo‘lgan qobiliyati (M.Matematik –geometriya, algebra, astronomiya, fizika...);
3. Perseptiv qobiliyat - o‘qituvchining talabalarga xos xususiyatlarni, ularning qiziqishlari va imkoniyatlarini bilgan holda ularning qalbiga, ichki dunyosiga kirish qobiliyati;
4. Nutq qobiliyati –o‘qituvchining o‘quv materialini aniq, ravon va tushunarli bayon qila bilish qobiliyati. Nutq yordamida va pantomimika vositasida o‘z xis-tuyg‘ularini tushuntira bilish qobiliyatidir;
5. Tashkilotchilik qobiliyati – bu talabalarining qiziqishlari, ideallari, yo‘nalishlari dunyoqarashlarini hisobga olib, ta’lim- tarbiya ishlarini tashkil qilish, talabalarni jipslashtirish, jamoani uyushtira olish, o‘z shaxsiy ishini tashkil qila olish qobiliyatidir;
6. Avtoritar qobiliyat - talabalarga bevosita emotsional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish, ular orasida, pedagogik jamoa o‘rtasida obro‘ qozona olish qobiliyati. O‘zining talabchanligi, samimiyligi, odilligi bilan jamoa orasida ajralib turish qobiliyatidir;
7. Kommunikativ qobiliyat - bu o‘qituvchining talabalar bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnata olishi, talabalarga to‘g‘ri yondashish yo‘lini topa bilishi, o‘zaro samimiy munosabatlar urnata olish, ular bilan birga hamnafas bo‘lish qobiliyatidir;
8. Pedagogik xayol – ham pedagogik qobiliyat tarkibiga kiradi. O‘qituvchi o‘zi ta’lim-tarbiya berayotgan talabasini qanday xarakterli xususiyatga egaligiga qarab, uni kelgusida kim va qanday inson bo‘lishini bila oladigan, unda qanday fazilatlar shakllanishi mumkinligi oldindan aytib bera oladigan qobiliyatidir;
9. Diqqatni tashkil qila bilish qobiliyati – bu – (Krutetskiyning «Ped.psixologiyaning asoslari» kitobida Straxov I.V buni – diqqatni taqsimlash qobiliyati – deb ko‘rsatadi) – o‘qituvchini o‘z va o‘qituvchilar diqqatini tashkil qila bilish, talabalarining turli xildagi diqqat turlari holatlaridan foydalana olish, o‘z diqqatini dars jarayonida taksimlay olish va unda biror kerakli ob’ektni, talabani diqqat e’tiboridan tushirib qoldirmaslik qobiliyatidir. O‘qituvchi shu qobiliyatga ega bo‘lgandagina, u ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli uyushtira oladi.

Sharq mutafakkirlari va allomalarning ijodiy meroslarida o‘qituvchi-tarbiyachi maxorati, ustozlik-shogirdlik shartlariga ham aloxida o‘rin berilgan. Abu Nasr Farobiy X asr sharq falsafiy fikrlarining eng yirik namoyondalaridan bo‘lib, hayot inson haqidagi ta’limotni dastlab yaratuvchilardan biri sanaladi. O‘rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy, falsafiy tafakkur tarqqiyoti uning nomi bilan bog‘lik. Farobiy o‘z zamonasi ilmini barcha sohasini mukammal egallagan uning asarlarida odam shaxsining eng yaxshi va oliyjanob xususiyatlari, kishilar hayotida adolat o‘rnatilishi, yaxshilik, aqliy kamolatiga erishuvchi inson haqida falsafiy fikrlar ifoda etilgan,

Abu Nasr Farobiy ustoz o‘qituvchiga shunday talab kuyada: "Ustoz shogirddariga katta zulm ham xaddan tashqari kungilchanglik ham qilmaslik lozim." Chunki ortiqcha zulum shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo‘lsa shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdan sovub ham koladi. U o‘qituvchiga bolalarning fe’l atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslaxat beradi. Uning fikricha:

1. Tarbiyalanuvchilar o‘qish-o‘rganishga moyillik bildirsalar, ularga ta’lim tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha itoatsiz bo'lsalar, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga katta xissa qo'shgan mashxur ensiklopedist olim, tabiatshunos, faylasuf, astranom, matematik, musiqashunos, xuquqshunos, filolog, yozuvchi va shoir. Allomaning gumanistik ta'limida birinchi masala inson kamolatidir, insonni olamdagi mavjudodlardan yuqori qo'yishdir.

Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya sohalaridagi boy meros o'z davrida jaholatiga qarshi kurashda juda katta progressiv ahamiyatga ega bo'ldi. Ibn Sino bolaga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha bolalar bilan muomolada bosiq va jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimning bolalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish kabilar muximdir.

XI asrda yashab o'tgan allomalardan biri Yusuf Xos Xojib ham o'z ijodida ilm axillarini. ustozlarini ulug'laydi. "Kutadg'u bilig'" asarida ilm ahli ulug'lanadi. Uning yozishicha:

Tagin bir toifa donishmand dono;*

Ular ilmi elga mash'al doimo.

E'zozla ularni to bor imkoning,

Bilimlarin o'rgan toki bor oning,

Bulardir xaqiqat tayanch tirgaging

Bilimli diyonat asos o'zagi.

Olimlar yo'q esa edi dunyoda,

Kelishi ham kulurmi edi bunyoda.

Ular ilmi bo'ldi xaloyiqqa nur

Erisa bu nurdan kimi yo'l topur.

Az-Zamaxshariy "Nozik iboralar" risolasida ilmi fan axillari o'qituvchilarga nisbatan xurmat- e'tiborning pasayib ketganidan kuyunib yozadi. "O'tgan zamonlarda ilmu-fazilat sohiblari podshoxlaridan o'z og'irliklariga barabar oltin xadya olardilar, asta-sekin zamonlar o'tishi bilan ularning qiymatlari kamayib itlari, olmaxonlar ulardan afzal bo'lib koldi, ya'ni nodonlar oltinlardan ortik ko'riladigan bo'lib qoldi.

Sharq. mumtoz madaniyatning butun dunyoga mashxur namayondalaridan biri Sa'diy Sheroziy ta'lim-garbiyada muallimning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qattiqqo'lik bo'lishining tarafdori bo'ladi

"Guliston" da ustoz shogird munosabatiga oid xikoyat keltiriladi: "Bir odam kurash san'atida zo'r mahorat qozondi, u 300 hiylani bilar va xar kuni bir xiylani ishlatib ko'rishar edi. Shogirdlaridan biriga 259 xiylani o'rgatdi. Ammo bir xiylani o'rgatmadi. Ustozning xurmatini bilmagan shogird ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so'z podshoga yoqmaydi. Ular kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi xiylasini ishlatib shogirdini yengadi. Ustoz xurmatini bilmagan shogird esa xaloyiq, va podshoxning nafratiga uchraydi".

Muallim - ustozga nisbatan xurmatda bo'lishning ifodasi shuki, shogird muallimdan oldin yurmaslik uning o'rniga borib o'tirmaslik lozim. Mashg'ulotlar davomida talabalar muallimdan uzoq bo'lmasinlar, ular orasi o'q-yoy oralig'ida bo'lsin, mana shunda ilmga intiluvchilarni o'z ustozlariga xurmati ma'lum bo'ladi.

Soxibkiron Amir Temur ham o'z xukumronligi davrida ilm axillari, muallimlarga xurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Jamiyatning rivojida ularning o'rni muhim deb biladi. Ko'plab madrasalar ochadi ularga muallim va muddarislar tayin etadi, O'zining ustozlarini ham juda qadrlaydi.

O'zbek xalqining ulkan shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'zining hamma asarlarida insonning yer yuzidagi xaqiqiy inson degan nomini yuqori darajaga qo'yadi. Uning ijodida ham muallimlar ishi, ularga munosabat masalalariga keng o'rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarislar hamda ustoz murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutassib johil domlarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur deydi. Masalan:

"Maxbub ul qulub" asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularni o'ta qattiqqo'l, johil va ta'magirliklarini qoralaydi. "Darxaqiqat johil muallimlar gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir, U yosh bolalarning azoblashga, kaltaklashga o'rgangan, g'azabli qoshi chimirilgan, achchiqlanishga odatlangan. Ularning ko'pchiligida ko'ngil qattiqqo'lligi va ta'b xastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga ham griftor. Ular kiyinish yo'li bilan bolalar ko'nglini o'zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do'k-po'pisa bilan tartibga solmoqchi bo'ladilar. Ulardagi ko'rinib turgan qo'pollik, yosh bolalardagi kelishmagan xattixarakatni silliklashga yirik egovdir. Ular ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi. Lekin ustoz bolaga ilm va odob o'rgatadi" – deb ta'kidlaydi. Darxaqiqat muallim bu kabi xollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko'p, agar shogird ulg'aygach podshoxlik martabasiga erishsa ham o'z muallimga qulluq qilsa arziydi, shuning uchun ham Alisher Navoiy yozadi.

Xaq yo'lida kim senga bir xarf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning xaqin yuz ganch ila.

Xusayin Voiz Koshifiy o'z asarlarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtaladi; - "Agar shogirdlikning binosi nimani ustiga quriladi deb so'rasalar iroda ustiga deb javob bergin. Agar iroda nima deb so'rasalar samo' va toatdir deb aytgin. Agar samo' etish va toaat nima deb so'rasalar nimani ustoz aytsa uni jon qulog'i bilan eshitish, chini bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir deb ayt".

U shogirdlikning 8 ta odobini ko'rsatadi:

1. Birinchi bo'lib salom berish.
2. Ustozning oldida oz gapirish.
3. Boshni oldinga egib turish.
4. Ko'zni xar tomonga yugurtirmaslik.
5. Gap so'ramoqchi bo'lsa oldin ustozdan ijozat olish.
6. Ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik.
7. Ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik.
8. O'tirib turishda xurmat saqlash.

Mashxur allomaning fikrlaridan shu narsa ko'rinib turibdiki o'qituvchilik yer yuzadagi har qanday kasbdan ko'ra yuqorirok turadigan juda faxrli kasb deb xisoblangan va unga juda katta ahamiyat berilgan.

Shunday ekan bugungi kunda ham o'qituvchiga xurmat bilan qarash lozimligini talab qilinadi. Albatta bunda o'qituvchining o'zi ham jamiyatda qanday muxim vazifani bajarayotganligini tushinib olishi va o'z qadr qimmatini yaxshi bilib ishlashi zarur. O'qituvchi sof vijdonligi, ishchan, sabotli, talabalarga o'zi singdirishi lozim bo'lgan fazilatlariga jonli namunasi, keng ma'lumotli va mexnatsevar kishi bo'lishi lozim. U o'z ishini bexad sevishi, talabalarga ba'misli otalardek muomila qilishi, ularda bilimga xavas tug'dirishi zarur. O'zi namuna ko'rsatib talabalarni o'ziga ergashtirish o'qituvchining eng birinchi vazifasidir.

Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy psixologik shartlari, o'quv faoliyatini samarali bo'lishi uchun faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish usullarini bilish muhim bo'lib, yangi pedagogik va didaktik texnologiyalarni joriy etishning o'z psixologik qonuniyatlari mavjud

1.2. O'zbekiston va xorij psixologlari tomonidan muammoning o'rganilishi

Ko'pchilik psixologlari, shu bilan birga O'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur hislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi.

Rossiya psixologlaridan N. V. Kuzmina, V. Slastenin, F.N. Gonobolin, O'zbekistonlik psixologlardan R.Z. Gaynutdinov, M. G. Davletshin, S. Jalilova, A. Jabborov, M. Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o'qituvchilik kasbini atrofli cha o'rganib, ancha batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek zamonaviy ta'lim psixologiyasini rivojlantirish va unda o'qituvchilarning faoliyatini psixologik taxlil qilishda psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M. Abdullajonova, Ye. Gladkova, A. Mashkurov, T.

Hamrokulov, E. Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari va o'zbek tili va adabiyoti, o'zbek maktablarida rus tili va adabiyoti, matematika, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini namunasini aniqlab olish imkoniyatini berdi. Xar bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining iktisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu hildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asnosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasi ishlab chiqishi zarurdir.

Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish uchun:

- talaba yoki o'qituvchi tinmay o'z ustida ishlashi, mashq qilishi,
- izlanishi,
- ta'limning samarali metodlaridan foydalanishi,
- pedagogik faoliyatda hamma vaqt faol ishtirok etishi,
- o'qituvchilarning darslariga kirib, taxlil qilib, undan o'ziga tegishli xulosalar chiqarib olishi,
- faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarga bardosh berishi, tusiklarni bartaraf qilishi,
- o'z oldiga kuygan oliy maqsadni qo'lga kiritishga doimo intilishi va yana, yana izlanishi,
- bolani o'z bolasi jigargushasi kabi sevishi lozim,
- kuzatuvchanlikni rivojlantirishi va x.k.

O'qituvchi bilan talaba orasidagi o'zaro munosabat avvalo, talabaning yoshlik va individual munosabatlarini hisobga olgan holda bo'lishga asoslanishi lozim. Buning uchun talabani oliy dargog'ga qadam qo'ygan kundan boshlab unda oliy ta'lim tizimi konun koidalari va oliy ta'limdagi barcha xodimlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi va uning talabalikkacha bo'lgan davridagi o'ziga xos xususiyatlarini bilishi, talabaga sezdirilmagan holda undagi salbiy xususiyatlarni oldini olishi, samimiy munosabatlar asosida uning fikrlarini bilib olishi va unga ozor bermagan xolda ta'sir ko'rsatish talab qilinadi. Bu o'rinda o'qituvchining pedagogik odobi katta ahamiyatga ega.

Pedagogik odob nima?

Pedagogik odob - bu o'zini pedagogik jamoa va talabalar jamoasi orasida tuta bilishi, o'z ma'suliyatini xis qilgan holda pedagogik faoliyatga munosabatda bo'lish, o'qituvchining o'qituvchilar hamda talabalar bilan to'g'ri va samimiy munosabatda bo'lishi, talaba shaxsini xurmat qilishi, ahloq qoidalariga rioya qilgan xolda ish ko'rishi, ularga g'amxur bo'lishdir.

Buyuk rus pedagogi K.D. Ushinskiy pedagogik odob haqida shunday deb yozadi: « Maktabda hazilga yo'l qo'yuvchi jiddiylik xukm surishi lozim, ammo hamma ish xazilga, ermakka, sertakalluflikka, adolat tirnok ichidan kir izlashga, yaxshilik muloyimlikka, tartib bachkanalikka aylanib ketmasligi kerak. » (O klassnoy dissipline, II- tom , I tom. 1953 g. 160 str)

Pedagog talabaga ta'sir ko'rsatuvchi eng samarali usullarni topa olishi, tarbiyaviy ta'sir usullarini qo'llashda pedagogik nuqtai -nazardan eng yaxshi choraga rioya qila bilishi, konkret pedagogik vazifani, talaba-talaba shaxsining xususiyat va imkoniyatlarini va muayyan pedagogik vaziyatni hisobga olib ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalar bilan bo'lgan munosabatda va istalgan pedagogik ta'sirni qo'llashda me'yorni sezish, arzimagan ish uchun keskin, qo'pol va talabani xafa qiladigan darajada tanbex berish, talabalarda norozilik, xafagarchilik paydo qilish ham xakikiy pedagogning ishi emas.

Talabalar bilan bo'lgan munosabatda o'qituvchini adolatliligi alohida o'rin egallaydi. Adolatli munosabat talabalarni o'qituvchiga yakinlashtiradi. Uning obro'sini oshiradi va bunday

o'qituvchiga nisbatan talabalarda xurmat xissi uyg'onadi. Adolatsizlik – ko'pincha (hamma vaqt) yomon oqibatlariga olib keladi va bunday sifat umuman o'qituvchiga yot bo'lishi kerak.

Talabalar o'qituvchini bo'shangligini, laqmaligini prinsipsizligini, irodasizligini yoqtirmaydilar. Talabalar qo'pollik bilan majbur qilmasdan, ko'rmasdan, shuningdek keraksiz rasmiyatchiliksiz talab qila oladigan, shu yo'l bilan o'z maqsadiga erisha oladigan o'qituvchilarni juda xurmat qiladilar.

Demak, o'qituvchi bilan talabalar orasidagi o'zaro samimiy munosabat, bir-birini tushungan holda ish ko'rish, talabani psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib uni baxolash, pedagogik bahoga nisbatan odillik, bola shaxsiyatini xaqoratlamay ish ko'rish pedagogik odob va munosabatlarning asosini tashkil qiladi. O'qituvchi o'zaro munosabatlarni boshqarish uchun avvalo, mana shu munosabatning sababi va xarakterini bilishi shart. Shuning uchun ham hozirgi kunda rus psixologlari Ya.L. Kolominskiy, V.M. Galuzinskiy va boshqa o'qituvchi va talabalar orasidagi munosabatlarni xakteri masalasini o'rganib, unda talaba haqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik, uni turli faoliyatlar protsessida kuzatish, dangasa, intizomsiz talabalarining ichki dunyosini tushunib, ularni qiziqish va idellarini, psixologik yo'nalishini, dunyoqarash va e'tiqodlarini bilib, unga ta'sir ko'rsatish va unda samimiylikka – bu orqali jiddiy va talabchanlikka e'tibor bergan holda muomala qilish maqsadga muvofiqligini ko'rsatib beradilar.

O'qituvchining talabalar bilan bo'ladigan muomala uslubi shunday bo'lishi lozim. U kerak va kerak bo'lmagan ishga aralashmaslik, o'z faoliyati davomida turli xil holatlarga nisbatan sabr, chidam bilan munosabatda bo'lishi, u yoki bu tadbirlarni tashkil qilishda tashabbus ko'rsatavermaslikdan iboratdir. Tashabbus talabalardan chiqishi kerak. Har qanday ish faoliyatida u o'zining pedagogik bilim va malakalaridan foydalanadigan va uni hayotga tatbiq qiladigan bo'lmog'i lozim.

Talaba shaxsini baholash o'qituvchining odobi, pedagogik taktiga bog'likdir. Pedagogik takt (lot. tastus – tegish, sezish, odob) atrofdagi kishilar bilan muomala va munosabatda bo'lishda me'yor xissiga rioya qilishdan iborat axloq normasidir. Takt – shaxsning aqliy hamda axloqiy kamolat darajasini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi.

Demak, talaba shaxsini baholashda o'qituvchi ahloq me'yoridan chetga chiqmasligi talab etiladi.

1.3. Pedagog va talaba o'rtasidagi muloqot

Inson o'zining butun hayoti va faoliyati davomida ob'ektiv dunyoni bilib boradi. Bilish dunyoni inson ongida aks etishining murakkab jarayoni bo'lib, u bilmaslikdan bilishga, noaniq va to'la bo'lmagan bilimlardan ancha aniq va to'la bilimlarga tomon xarakat qilish sifatida soodir bo'ladi. Bilish tevarak-atrofdagi odamning narsa va xodisalarni xissiy idrok qilishdan boshlanadi. Tashki olamning sezgi, idrok va tasavvurning xosil bo'lishiga olib keladi, bular real borliqdagi narsalarni inson ongida aks ettiradi. Tevarak-atrofdagi olamga muvaffaqiyatli ta'sir etish uchun bu olam rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini bilish kerak. Faqat xissiy bilish yordamidagina bu qonunlarning mohiyatini tushunish mumkin emas.

Biroq olimning hali noma'lum bo'lgan sirlarini bilishi bilan, talabani fanlar sohasida bayon qilingan bilimlarni bilishi o'rtasida katta farq bor, ya'ni olim yangilikni kashf qiladi, talaba esa tayyor sinalgan bor bilimlarni o'zlashtiradi. Talabalarining bilimlarni o'zlashtirish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Avvalo bu o'zlashtirib olish o'qituvchi xabarligida bo'ladi va shuning uchun to'g'ri yo'l bilan amalga oshiriladi. Bu o'zlashtirish insonning borliqni bilib olish jarayonida uchraydigan egri-bugri yo'llar va yanglishuvlarni chetlab o'tib, ancha qisqa yo'l va muddatda ro'y beradi.

Talabalar o'qib, o'quv fanlarining mazmunini o'zlashtira borib, ob'ektiv olamni bilib boradilar. Ular ilmiy bilimlarning hammasini emas, balki ularning «fan asoslari» deb ataladigan bir qisminigina o'zlashtirib oladilar.

Ma'lumki, odam muayyan bilim, ko'nikma, malaka xosil qilish uchun xulq-atvor shakllarini ham o'rganib olishi uchun, ijtimoiy tajribalardan tashkil topgan malakalarning asosiy xajmini egallab olish uchun u o'quv-tarbiya tizimining turli sohalari bilan mashg'ul bo'lmog'i va bu ishlarga jalb etilmog'i kerak. Bunday xodisalarda tegishli bir mazmunni o'zlashtirib olish bir-

biri bilan aloqador bo'lgan ikki jarayon: ta'lim olish va o'qitish jarayonining natijasi sifatida zikr etiladi. Fan-texnika taraqqiyoti hamda uzluksiz ta'lim olish g'oyasi amalga oshirilayotgan bir sharoitda ta'lim inson ijtimoiy faolligining predmetli faoliyatning sub'ekti hamda ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida o'zini doimiy ravishda kamolga yetkazishga qaratilgan faol ijtimoiy faoliyatning mustaqil shakli sifatidan ko'prok ahamiyat kasb eta boradi.

Ta'limda ko'prok so'zlar-tushunchalar shaklida ifodalangan umumlashtirilgan bilimlar o'qituvchi tomonidan bayon etiladi, talabalar tomonidan esa bu bilimlar idrok kilinadi, o'zlashtiriladi, real narsalarni idrok qilish esa bunda yordamchi rol o'ynaydi. Talabalar ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. Bilimlarda ob'ektiv olam umumlashtirilgan xolda aks ettiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni o'rganishni nazarda tutadi. Talabaning bilimlari to'la bo'lishi, uning bilimlar tizimini egallab olishi juda muximdir, bu bilimlar tizimida aniq faktik materialni bilish uning mantiqiy jihatdan to'g'ri deb topilgan tuzilishi va umumlashtirilishi bilan ko'shib ketadi.

Darhaqiqat, ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi darslik, o'qitish metodlari o'qituvchiga bog'lik. Yaxshi o'qituvchi o'z fanini mukammal egallab olgan bo'lishi, kasbini va bolalarni sevishi kerak. O'qituvchi tarbiya ishida bolalar murabbiysidir. O'qituvchi ishi boshqa ishlarga qaraganda ko'prok doimo g'ayratlanish va zavqlanishni talab qiladi. Tashqaridan qaraganda o'qituvchining roli oddiy va sodda, biroq u o'z mehnatining yuksak ijtimoiy ahamiyatini tushunishi lozim, O'qituvchilarga doimo zur xurmat va gamhurlik bilan qarashga hamisha e'tibor berish zarur. Chunki o'qituvchi biror fandan dars beribgina qolmay, balki tarbiyachi hamdir. U o'z kasbini sevishi, tarbiya ishiga zo'r tadqiqotlar olib borishga intilishini, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va xalollikni, o'tkir aql - idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini talab qilinadi. Pedagogik mahorat o'ziga bolalar xaqidagi, ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi. O'qituvchi bu madaniyatni egallamasa, hech vakt chinakam usta bo'la olmaydi. Zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatining o'zi kifoya qilmaydi. U bolalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muxim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan, asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir biriga o'tishi dialektikasini chuqur taxlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalariga ega bo'ladi.

Pedagogik malaka bilim va ko'nikmalar faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir. O'qituvchi faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi.

A) Amaliy konstruktiv malakalar:

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish, faoliyatning eng muxim qoidalarini anglay bilish.
2. Har bir talabaga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual dasturini tuzish.
3. Talabalarining yoshlik va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga nisbatan individual munosabatni oshirish.

B) Tashkilotchilik malakalari:

1. Talabalar orasidagi faol bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idrok qilish.
2. Talabalarining turli xildagi jamoa, individual faoliyatini uyushtira bilish va ularni ijtimoiy faolligini bilish.
3. Talabalarga berilgan ijtimoiy topshiriqlar berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.
4. O'zi rahbarlik qilgan guruxdagi amaliy ishlarni amalga oshira bilish.
5. Ota - onalar, keng jamoatchilik o'rtasidagi ishlarni bilish. Talabalarga talablar qo'yish metodlari quyidagilardan iborat:
 - talaba-o'quvchining axloq koidalarini, barcha predmet buyicha bilimlarni baxolash, kollejning ichki tartib qoidalarini, ta'limda tushuntirish jarayonida qo'llanadi. Shuni

nazarda to'tish kerakki, o'qishdagi burch va ma'suliyatni bilish, mashq qilish, talabalarni mehnat qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Talaba-o'quvchi o'quv dargohida yaxshi o'qishi, samarali xizmat qilishi, yaxshi dam olishi, hamma vaqt qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunday faoliyatni uyushtirish o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

O'qituvchi oldiga qo'yilgan talablar:

1. Faoliyatning aniq maqsadlarini talabalar jamoasi ham, talaba ham aniq xis qilsin.

2. Faoliyatni amalga oshirish o'qituvchilar tashabbusi va ijodiy faollikka bog'lik. Bunda ishni taqsimlash, rejalash, hisobga olish, natija chiqarish kabilarni talabalarning o'zlariga havola qilish kerak.

3. O'qituvchi faoliyatga pedagogik rahnamolik qiladi, ularni ijodiy odatlarini shakllantiradi.

4. Faoliyat jarayonida har bir bola ijrochilik malakasiga ega bo'ladi.

5. Ish natijasini muxokama qilish, ishtirokchilarni pag'batlantirish.

Insonning ahloqiy tarbiyalanganligini uning atrofidagi narsalarga bo'lgan turli-tuman munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Amaliy faoliyat kishining ahloqiy tarbiya tizimining muhim tomonidir. Shuning uchun bolalarga yaxshilik qilish va mehribonlik ichki kechinmalar bilan emas, balki pedagog faoliyatidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Muomala shaxs faoliyati uchun muhim hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quv tarbiya jarayonida talaba shaxsini shakllantiradi. Muomila shaxsga o'zini tanishni o'rgatadi. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, talabalarning faqat axborotni egallashlari bilan chegaralanmasdan, yordamga muhtoj bo'lganlarga sharoit yaratish, ularning qiziqishini ta'minlashi lozim.

1.4. Pedagogik faoliyatda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishning psixologik jihatlari.

Davrning dolzarb muammolaridan biri mutaxassis kadrlarni kasbiy mahoratini oshirish, ularda muhim kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat.

Oliy majlisning IX sessiyasida respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalarga to'xtalib, shunday degan edi: "O'quv yurtlarimizni bitirib, ta'lim-tarbiya olib chiqayotgan yoshlarimizning olgan mutaxassisligi va tayyorgarligi ko'p jihatdan zamon talablariga, bozor iqtisodiyoti ehtiyojiga javob bermasligi ko'zga tashlanmoqda. ...oliy o'quv yurtini bitirayotganlar qanday talablarga javob berishini aniqlab olishimiz kerak"¹. Bu shubhasiz, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga sifat jihatdan yuqori bo'lgan bir qator talablar qo'yishni taqozo etadi. Shunday ekan, talabalar ta'lim va tarbiya olish jarayonida o'rganishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning sifati ustida ishlash muhim ahamiyatga ega.

Bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ta'lim jarayoni negizini xarakterlab, uning asosi, muhim sharti sifatida yuzaga keladi. Shunga ko'ra pedagogik psixologiya nazariyasi va amaliyotida ushbu tushunchalar fundamental ahamiyatga ega. Bilim, ko'nikma va malakalarning mazmuni hamda ularning shakllanish jihatlari psixologiya, pedagogik, didaktika, xususiy metodika va talabalarning amaliy mashg'ulotlariga oid keng ko'lamdagi adabiyotlarda nazariy jihatdan asoslab berilgan. Bu tushunchalarga qanchalik aniq ta'rif berilganligiga qaramasdan mazkur tushunchalar yana ham chuqurroq o'rganishga va nazariy jihatdan har tomonlama asoslanishga muhtoj.

Pedagogikaga doir adabiyotlarda "bilim" tushunchasi, odatda, insonlar tomonidan mavjud bilim va hodisalarni, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini bilish mahsuli sifatida baholanadi. (Ped. ensikl., 1965). Bunday ta'rif asosan bilimning falsafiy qirrasini ochishga xizmat qiladi. Didaktika nazariyasida esa "bilim" tushunchasi, asosan, ikki tomonlama izohlanadi: Ya'ni,

¹ И.А.Каримов. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққийётининг пойдевори Т., 1977.11 бет.

- talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hamda ular tomonidan o'zlashtirilib amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan,
- shaxsiy xislatlarga aylanib qolgan bilimlar.

Biz yuqorida keltirgan birinchi ta'rif ta'lim mazmunini belgilab beradi. Bu bilimlar adekvat xarakterga ega bo'lib, jamiyat hayotida, tasdiqlangan moddiy borliqni ifodalaydi. Bilimlar qotib qolgan, o'zgaras hoda emas, jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti davomida bilimlar ham uzluksiz rivojlanib, aniqlanib, chuqurlashib va ba'zan jiddiy o'zgarishlarga uchrab, takomillashib boradi. Pedagogika nazariyasida bilimlarga xos bo'lgan ushbu omilni hisobga olgandagina ta'lim mazmunining ilmiyligi ta'minlanadi. O'quv predmeti doirasida taqdim etiladigan bilimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- muvofiq tarzda fan asoslarini ifodalovchi ilmiy bilimlar, hamda
- dolzarblik va turg'unlik jihatidan o'zgaruvchan bo'lgan axborotlar ko'rinishidagi ilmiy ma'lumotlar.

Ilmiy ma'lumotlar, odatda, nazariyalarning mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bu bilimlarning muntazam jamlanishi hozirgi fanning muayyan holatini ifodalovchi deduktiv tizimdagi axborotlar hajmining ortib borishiga olib keladi, lekin mazkur fan negizini tashkil qiluvchi bilimlar tizimiga hech qanday o'zgartish kiritmaydi. Bu holda yangi ma'lumotlarning faqat bir qismigina ilmiy nazariyaning asosiy holatlarini o'zgartirib borish uchun xizmat qiladi. Bunday holda bilimlar qanchalik umumlashgan bo'lsa, ular shunchalik turg'un xarakterga ega bo'ladi.

O'zlashtiriladigan bilimlar hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'nikma va malakalarning mazmuni va o'zaro nisbati haqida bir qancha yo'nalishdagi qarashlar mavjud.

Ma'lumki, ko'nikma malakadan oldin hosil bo'ladi va mashqlar bajarish natijasida ko'nikma malakaga aylanadi. Chunonchi, "Pedagogik ensiklopediya"da (1968) ko'nikma - "ishlashga to'g'ri keladigan sharoitlarga mos xarakterlarni samarali bajara olish" deb ta'riflanadi; ko'nikmalar ham amaliy, ham nazariy xarakterga ega bo'ladi. Pedagogik psixologiyada ham "malaka yuqori darajadagi harakat" sifatida ta'riflanadi ushbu bosqichda harakatlar avtomatlashadi, aqliy boshqaruv bir daraja kamayadi. Malaka amaliy faoliyatni shu qadar tez bajarilishidirki, bunda harakat o'z-o'zidan amalga oshirilayotgandek bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,

- Ko'nikma-harakatlarni samarali bajarish imkoniyatidir;
- ko'nikma-harakatdagi bilimlardir;
- ko'nikma-ma'lum darajada o'ylab bajariladigan harakatlar;
- ko'nikmalar qandaydir harakatni yangi sharoitlarda bajarishning usulidir;
- ko'nikma-murakkab tizimli psixik va amaliy harakatlarni egallashdir.

Demak yuqoridagi fikr va taxlillardan ko'rinadiki, pedagog va talabalar jamiyat taraqqiyotidagi asosiy faoliyat bajariuvchi shaxs sifatida shakllanar ekan, ular o'z faoliyati davomida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi hayotiy zarurat ekan.

Birinchi bob bo'yicha xulosa.

Olib borilgan nazariy taxlillar shuni ko'rsatadiki jamiyat taraqqiyotida o'qituvchi kasbiy doimiy shaxs faolligini ta'minlovchi, bilimlar bilan qurollantiruvchi, yangilikka intilishga qiziqishlarni shakllantiruvchi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi shaxs sifatida muhim o'rin tutadi. Bu jarayonni tadqiq etish uzoq o'tmish olimlar qarashlaridan tortib, bugungi zamonaviy ta'lim jarayonida ham davom etib borayotganligi, o'z navbatida o'stoz, shogird munosabatlarini takomillashtirishning muxim omillarini yaratish imkoniyatlarini oshirmoqda. Buyuk allomalarning o'stozlar haqidagi o'gitlari va o'stoz-shogird munosabatlari haqidagi qarashlari bugungi kun o'qituvchilarining faolligini oshirish, o'z ustida chuqur ishlashi va izlanishlar olib borish uchun dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda.

2.BOB. Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy –psixologik xususiyatlari

2.1. Zamoniy o'qituvchining psixologik qiyofasi.

Shunday bir kasb borki, jamiyat uchun zarur bo'lgan biror mutaxassis uning ishtiroki va mehnatisiz o'z kasbini mukammal egallab chiqa olmaydi. Bu-o'qituvchilik kasbidir. O'qituvchilik sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdir. Chunki har qanday odam ham bu murakkab kasbni egallab ololmaydi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'qituvchilarga g'amxurlik qilishning juda ko'p kirralari mavjud, bular «O'qituvchilar va murabiyalar kuni» ni bayram sifatida nishonlanishi, turli faxriy unvonlar ta'sis etilganligi, turli imtiyozlar berilayotganligi fikrimiz dalilidir.

O'zbek xalki qadimdan ustozni e'zozlab kelgan xalq bo'lishi bilan shuxrat qozongan. « Ustoz otangdan aziz », « Usta qanday-shogird shunday », « Ustoz bilimli-shogird ilmi » singari xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan.

Pedagogik faoliyat—bu o'qituvchining o'quv jarayonidagi faolligidir. U umumiy ta'limni isloh qilishda, yosh avlodni xar tomonlama shakllantirishda muxim rol o'ynaydi. Xalqimiz ular qo'lga shirindan-shakar jigargo'shalarini ishonib topshiradilar. O'qituvchi bola shaxsini shakllantiradi, ma'naviy, hayotiy va ilmiy e'tiqodlarni, qiziqish va ideallarni shakllantiradi. Umuman olganda, o'qituvchilar qo'lida yosh avlodimizning taqdiri yotadi. Ularni baxtli va baxtiyor, badbaxt va yomon bo'lishi ham, olim va zolim bo'lishi ham o'qituvchilarimizga bog'lik. Shuning uchun ham o'qituvchi jamiyatimizning yetuk o'g'il qizlarini tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi. Pedagogik faoliyat hamma faoliyatlar ichida o'zining chukur insoniy mazmuni bilan ajralib turadi. U o'zining ma'suliyati va uning yurakdan xis qila bilishi bilan ahamiyatlidir. Uning mazmuni esa o'qituvchi shaxsining faoliyati motivlari bilan belgilanadi. Agar bu motivlar ta'lim-tarbiya jarayonida uzoqni ko'zlagan, ma'lum ijobiy maqsadlarga qaratilgan bo'lsa - bu oliyjanob ideallarning paydo bo'lishiga, o'qituvchini bola qalbiga chuqurroq kirishiga, izlanishiga, yangi bilimlar sistemasini bolalarimizga singdirishiga, ularda o'qishga, mexnatga nisbatan ijobiy, ongli munosabatlarni tarbiyalashga olib keladi.

Pedagogik faoliyat motivlarining mazmuni ta'lim-tarbiya ishini muvaffaqiyatini belgilovchi omil xisoblanadi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va uni qayta qurish o'qituvchi shaxsi oldiga katta vazifalar va talablar qo'yadi. Bular,

1. O'qituvchi o'zining sog'lom dunyoqarashi, aniq insoniy yo'nalishi, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodining yuksak darajada ekanligi, o'z vazifasini vijdonan bajarishi ;
2. Bolalarga, pedagogik mexnatga mexr qo'yishi, bolalar jamoasi bilan ishlash va birga bo'lishga moyilligi;
3. Tarbiyaviy ishlarning sifatiga ahamiyat berish va ularni hayotga e'tiqodli qilib tarbiyalash;
4. Talabalar, ota-onalar va turli millatlar orasidagi ijobiy va samimiy munosabatlarni o'rnatilishi ;
5. Ta'lim jarayonini takomillashtirish, unda talabalarni bilish va fikr yuritish jarayonini faollashtirish. Mustaqil, faol va ijodiy tafakkurni shakllantirish;
6. Ta'lim jarayonida talabalarni maxsus va umumiy qobiliyatlarini shakllantirish;
7. Yoshlarni mexnatga nisbatan ongli munosabatda bo'lishini shakllantirish malakasiga ega bo'lish;
8. Ta'limning mazmunini takomillashtirish va intensivlantirishda uni yangi, samarali metodlarini qidirib topish va undan foydalanish;
9. Ta'lim-tarbiyaning effektiv yo'llarini topa bilish. Talabalarining psixologik qobiliyatlarini tushunish va unga qarab individual munosabatda bo'lish;
10. Talabalarni hozirgi zamon talabiga binoan tarbiyalash, o'z millatining urf-odatlarini , ahloqlari ruhida shakllantirish kabi qator vazifalarni hal qila oladigan bo'lmog'i lozimdir.

Bu vazifalarni hal qilish turli vaziyatlarda turlicha bo'lishi mumkin.

1-vaziyatda: o'qituvchining professional bilimlarni egallashi, o'z ustida samarali ishlashi, fan yangiliklaridan foydalanishi, izlanishi, o'z bilimlarini mustaqil ravishda amalga tadbik qila olishi bilan ;

2-vaziyat: o'qituvchining mustaqil, faol, ijodiy ish ko'ra bilishiga:

3-vaziyatda: talabalar faoliyatini analiz qilishi, uning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganish, ulardan o'z ishida foydalanish yoki tanqidiy karashga bo'lgan munosabatida;

4-vaziyat: o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishida sodir bo'lgan kamchiliklar va ularga bo'lgan munosabatlari, ya'ni ularni bartaraf qila olishi yoki sabr-qanoat bilan ishlash qobiliyatining turlicha bo'lishi.

5-vaziyat: o'qituvchining talaba shaxsini turlicha shakllantirishiga, ularda bilim, malaka va kunikmalarni xosil qilishga bo'lgan munosabati uni xar tomonlama kelgusi faoliyatga tayyorgarlik darajasi bilan bog'liqdir. Bu vaziyatlar o'qituvchining pedagogik faoliyati mazmunini tashkil qiladi.

Agar pedagogik faoliyat :

1-dan, pedagogik yo'nalishning aktivligini;

2-dan, ijtimoiy buyurtmalarni qanday bajarilishini,

3-dan, shaxsni o'z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyat boshqa faoliyatlar orasida eng murakkab va ta'lim-tarbiya berishdan oliy maqsadga qaratilgan faoliyatdir. Shuning uchun bu faoliyatning turi, tuzilishi ham o'qituvchi shaxsi oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablarning qanchalik murakkabligini ko'rsatishi mumkin.

Pedagogik faoliyat turlariga:

1. Ta'limiy faoliyat.

2. Tarbiyaviy faoliyat.

3. Tashkilotchilik faoliyati.

4. Tashvikotchilik faoliyat.

5. O'z ustida ishlash faoliyati

6. Maslahat berish, bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish faoliyati.

Pedagogik faoliyat strukturasiga:

1) ta'lim-tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarining motivlarini aniqlash;

2) talabalarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini tanlay olish;

3) talabalarni nazorat qilish va ularning faoliyati, bilimlarini baxolay olish kiradi.

Pedagogik faoliyatning bu strukturasida bevosita uning komponentlari:

1) konstruktiv,

2) tashkilotchilik,

3) kommunikativ faoliyatlar yotadi.

Chunki, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarining motivlarini belgilash, unga ta'sir etuvchi usullarni tanlab olish, qo'llash; talabalarni nazorat qilish va bilimlarni baxolash bevosita o'qituvchining konstruktiv, ya'ni ta'lim jarayonini tashkil etishga, uning tashkilotchiligi va ta'limni boshqarishi, talabalar bilan o'zaro munosabati va ularning bilimlari, imkoniyatlarini baholay olishiga, talabalar qalbiga kira olishiga bog'liqdir.

Konstruktiv komponent - o'qituvchining mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari bo'ladigan tarbiyaviy ishlarni ishlab chiqish, unga tegishli bo'lgan usullar yoki metodlarni tanlay bilishi, talabalarga chuqur bilim bera olishi, darsni faollashtirishi va intensivlashtirish (tezlatish) yo'llarini, muammoli vaziyatlarni paydo qila olish va uni talabalar oldiga qo'ya bilishdagi faoliyat komponentidir.

Pedagogik faoliyatning bu komponenti ta'limni isloh qilish jarayonida jamiyatimiz hayoti, rivoji uchun zarur bo'lgan komil insonni tarbiyalashda o'qituvchilar oldiga ulkan talablarni qo'yadi.

Tashkilotchilik komponenti - bu komponent konstruktiv komponent bilan bog'lik bo'lib, u butun o'quv faoliyati va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish malakasidan iboratdir.

Tashkilotchilik faoliyatida uch yo'nalish: bayon etish, o'z xulqini dars va tarbiyaviy ishlarda tashkil qila bilish, boshqarish, talabalar faoliyatini tashkil qilish asosida amalga oshadi.

O'quv va bilish faoliyatini tashkil qilishda talabalarining individual ish faoliyatini tashkil qilish, jamoa faoliyatini, ota-onalar va ta'lim muassasalarga yordam beradigan tashkilotlar ishini boshqarish ham shu faoliyatning ish mazmunini tashkil etadi.

Kommunikativ faoliyat - bu faoliyat o'qituvchining talabalar, ota-onalar va maktab ma'muriyati bilan o'zaro munosabatlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi bilan talabalar orasidagi munosabat o'quv faoliyatining mazmunini qanday bo'lishini belgilaydi.

O'qituvchining talabalarga bo'lgan emotsional munosabatlarini 5 tipga ajratish mumkin:

- 1) emotsional-ijobiy faollik,
- 2) emotsional-ijobiy passivlik,
- 3) emotsional-salbiy faollik,
- 4) emotsional-salbiy passivlik ,
- 5) muvozanatsizlik

Bunday munosabatning xar biri bolaga turlicha ta'sir ko'rsatadi va o'zaro munosabatlarning mazmunini, sifati tashkil qiladi. Talabalar shu munosabatlarga turlicha berilishlarida ularni o'qishga, mexnatga bo'lgan munosabatlari shakllanadi.

Xar bir shaxsning o'ziga xos xususiyati mavjud. Xar bir shaxsning ijobiy va salbiy xususiyatlari ham mavjud. Ammo milliy maktab o'qituvchisi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari va sifatlari, qobiliyatlari, boshqa kishilarnikidan farq qilmog'i, u iloji boricha bola uchun, talaba (talaba) uchun ideal bo'lmog'i, unga taqlid qilishiga munosib bo'lmog'i lozim. Chunki, o'qituvchi qo'lida bo'lg'usi insonning taqdiri yotadi. O'qituvchi shaxsining professional, ya'ni kasbga yo'naluvchi sifatlari, avvalo, uning bilim va bilim berishga bo'lgan ehtiyoji, istedad va qobiliyati, axloqiy sifatlari: haqqoniyligi pritsipialligi, talabchanligi, mexribonligi, o'z burchini his qilishidir. O'qituvchining professional ahamiyatga ega bo'lgan muxim sifatlari - bolani sevishi, talabaning ichki dunyosini tushunishga qobiliyatligi, ularga, maqsadga muvofiq pedagogik-psixologik tasir ko'rsatishi, talabaning ayni paytdagi psixologik holatini tushunib, yosh hamda individual xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rishidir. O'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi turli xil vaziyatlardagi o'zaro munosabatlarni taxlil qilish natijasida bolalar jamoasidagi psixologik muxit va kommunikativ madaniyat o'qituvchining talabalar bilan bo'ladigan muomala stili va uning pedagogik nazokatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

O'quv jarayonini rejalashtirish o'qituvchining mashg'ulotlariga tayyorlanishida asosiy o'rin tutadi. O'quv jarayonini rejalashtirish tufayli o'qituvchi va talabalarining mashg'ulotlarda kasb ta'limining vazifalari va maqsadlariga, uning prinsiplariga va talabalar bilan ishlashga qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq hamma ishlarini oldindan ko'rish mumkin. O'quv jarayonini rejalashtirishda o'qituvchi quyidagi asosiy didaktik vazifalarni hal qiladi.

1. O'quv protsessini moddiy jihatdan o'z vaqtida ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Xususan, nazariy va amaliy darlarni turli materiallar va asboblardan bilan ta'minlash muddatlari oldindan ma'lum bo'ladi. Buning ahamiyati katta, chunki ta'minot ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liq, shuningdek, har doim biror vaqt rezerviga ega bo'lish kerak.

2. Kasb ta'limi mashg'ulotlarining mazmuni bilan boshqa o'quv predmetlarining mazmuni orasidagi bog'lanish yoritiladi. O'qituvchi o'quv materialini alohida darslarga taqsimlab, kasb ta'limi bo'yicha mazkur aniq mavzuni o'rganishgacha talabalar fizika, ximiya, matematika va boshqa predmet darslarida qanday bilimlar olganliklarini aniqlaydi; shundan kelib chiqib kasb ta'limi bilan fanlarning asoslarini o'rganish orasida didaktik bog'lanishni ta'minlash mumkin.

3. O'quv laboratoriyalarining o'zaro muvofiq ish olib borishga erishiladi. O'quv laboratoriyalaridagi mashg'ulotlar jarayonida turli kompleks vazifalarni hal qilishlari mumkin. Bunday hollarda talabalarining ishlashini vaqt bo'yicha moslashtirish juda muhim bo'lib, bunga esa rejalashtirishda erishiladi.

4. Yarim yillik va yillik yakunlari chiqarishda o'qituvchi uchun rejaning bajarilishini tekshirish oson. Buning uchun rejalashtirilgan ish bilan amalda bajarilgan ishni taqqoslash yetarli.

5. O'quv bo'limi va boshqa yuqori muassasalar tomonidan ta'lim jarayonini nazorat qilish yengillashadi.

Ilg'or o'qituvchilar ishlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, u yoki bu mavzu bo'yicha darslar sistemasini tashkil etishda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) mavzuning o'quv predmetidagi o'rni va talabalar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar doirasi;
- 2) nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- 3) mavzu materialining talabalar bilan imkoniyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati;
- 4) talabalarning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorligi;
- 5) materialning mantiqiy bayoni;
- 6) talabalar ijodiy ishlarining imkoniyatlari;
- 7) temani o'rganishdan kutilgan natija;
- 8) darslar bilan talabalarning sinfdan tashqari mashg'ulotlari orasidagi bog'lanish jarayonlari muhimligini pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

O'qituvchi har bir mashg'ulotning mazmunini oldindan bilsa, talabalarning tayyorgarliklarini aniqlash va ular orasidagi o'tilgan materialni takrorlashga doir topshiriq qo'yish imkoniga ega bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha ishlar natijasida navbatdagi temani o'rganishning kalendar reja tuzilishi ham mumkin.

O'qituvchining darsga tayyorlanishida tashkiliy va metodik xarakterdagi tadbirlarni, shuningdek mahoratni oshirish tadbirlarini ifodalash mumkin. Mutlaqo ayonki, o'qituvchining bilimlari talabalardan talab qilinadigan bilimlardan ancha keng, chuqur bo'lishi kerak. O'qituvchi talabalarning o'quv dasturidan tashqari savollariga javob berishga tayyor bo'lishi kerak. U shuningdek kasbiy malakalarni puxta egallab olishi zarur.

2.2. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari

Ma'lumki, har qanday pedagogik jarayonning asosiy maqsadi - ta'lim oluvchida bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishdir. Bu narsa ma'lumotlar almashinuvi orqali ro'y beradi. Pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlar almashinuvi asosan uch shaklda amalga oshiriladi:

- monolog;
- dialog;
- polilog.

Monolog - ma'ruzachi yoki o'qituvchining tinglovchilar yoki talaba - talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir. Ayni shu usul ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosiy vosita ekanligi to'g'risida ongimizga o'rnatilgan qolgan tasavvur mavjud. Bu xolatda gapiruvchi ma'lumotlarning asosiy tayanch manbai hisoblanadi va faqat undagina faollik talab qilinadi. Monolog egasi o'zi mustaqil tarzda ma'lumot mazmunini tinglovchilarga yetkazish va o'z mavqeini ta'kidlash imkoniga ega bo'ladi. Lekin auditoriya, ya'ni tinglovchilar unga nisbatan ancha passiv mavqeda bo'ladilar va bu narsa ma'lumotning faqat kichik bir qisminigina idrok qilish va eslab qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bu kamchilikning oldini olish uchun auditoriyani faollashtirishning boshqa yo'llarini qidirishga majbur bo'ladi.

Dialog - o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir. Shuning uchun bu usul tinglovchilarni nafaqat faollashtiradi, balki auditoriyada ijodiy muhitning bo'lishi va fikrlar almashinuvidan har bir ishtirokchining manfaatdorligini ta'minlaydi. Ya'ni, tinglovchilar o'quv jarayonining ob'ektidan uning sub'ektiga aylanadilar.

Dialog jarayonida o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida fikrlar almashinuvi, bilimlarni o'zaro muhokama qila olish uchun real sharoit yaratiladi. Lekin dialogni tashkil etishdan avval o'qituvchi auditoriyaning u yoki bu xususda bilimlar va tasavvurlarga ega bo'lishini inobatda olishi zarur, aks xolda o'zaro muloqot samarasiz va mazmunsiz tortishuvga aylanib ketishi mumkin. Dialog jarayonida uni tashkil etgan shaxs auditoriyaning u yoki bu muammo yuzasidan bilimlarini diagnostika qilish va shunga mos tarzda o'z ishini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan shu xolat dialogning eng muhim psixologik ahamiyatidir.

Polilog - guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki talabalarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi. Polilog jarayonida guruh a'zolarining har biri muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'qituvchi esa ushbu jarayonning tashkilotchi sifatida talabalar yoki

talabalar faoliyatiga bevosita aralashmaydi. Bu usul dars mavzusi ko'proq nazariy xarakterli bo'lib, yangi g'oyalardan ularning amaliy jihatlari keltirib chiqarilishi zarurati bo'lganda qo'l keladi. Lekin bu usul mashg'ulotlar yoki muloqot darslari endi boshlangan paytda o'tkazilishi maqsadga muvofiq emas, chunki polilog uchun o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash tajribasidan tashqari yoshlarga o'sha soha yuzasidan ma'lum bilimlar majmui hamda hamkorlikda ishlash tajribasi zarur. Dialog va polilog texnikasini yaxshi egallagan muallim munozara yoki bahsni samarali tashkil etishga layoqatli bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, munozarani samarali tashkil etish qobiliyati o'z-o'zidan shakllanmaydi, buning uchun o'qituvchi umuman munozara metodikalarining mohiyati va uni tashkil etish yo'llarini ilmiy - amaliy jihatdan bilishi kerak.

Ma'lumki, ta'lim olayotganlar kontingentining o'zgarishi bilan pedagogik-psixologik ta'sir etish usullari va vositalarini ham o'zaro o'zgartirish lozim, chunki har bir tinglovchiga uning guruhdagi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashiladi. Turli toifadagi insonlar bir-birlaridan psixologik tuzilishining o'ziga xosligi, qiziqishlari xarakter xususiyatlari, qarash va e'tiqodlari bilan farq qiladilar, bu esa tarbiyaviy ta'sir etishda ushbu shaxslarni o'rab turgan borliq unga bo'lgan munosabatni hisobga olishni taqozo etadi. O'qituvchi bu xususiyatlarni to'g'ri hisobga olsa, tanlangan ta'sir etish usul va vositalari o'ziga mos kelsa, unda maqsadiga erishish shunchalik samarali bo'ladi.

Har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shu bois ta'lim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun tinglovchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart. Bilish motivlari shaxsning gnoseologik maqsad sari, ya'ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadiga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Bu turdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmani egallash (o'zlashtirish)da qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya'ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatga ega bo'lgan motivlar kiradi. Ular tinglovchi shaxsining o'qishdan ko'zda tutgan individual maqsadini ro'yobga chiqaruvchi qo'zg'atuvchi hisoblanadi. Chunki bilishga bo'lgan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirishda undagi intilishlarning yetilishidir. Bu kabi motivlar ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Albatta, bunday toifaga taalluqli motivlarda ham ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Zero bilimlarni o'zlashtirish uchun iroda kuchini ishga solishga to'g'ri keladi. Iroda kuchi maqsadni amalga oshirishga halaqit beruvchi tashqi qo'zg'atuvchilar kuchi va im-koniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik psixologiya nuqtai nazardan ushbu jarayonga yondashilganda to'laqonli vaziyatnigina optimal (oqilona) deyiladi. Ta'lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar tinglovchilar xulq-atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmay, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Aniq narsa va hodisalar, xatti-harakatlar, insonning faolligi muayyan manbalar bilan bog'liq bo'lsa, uyg'unlashib borsa, faoliyat motivlari darajasiga o'sib o'tadi. Psixologiyada manbalar o'z mohiyatiga ko'ra turkumlarga ajratib quyidagicha talqin qilinadi:

Organizmning tabiiy ehtiyojlarini namoyon qiluvchi tug'ma va jamoada shakllanuvchi ijtimoiy ehtiyojlarni vujudga keltiruvchi ortirma xususiyatli bo'lishi mumkin. Tug'ma ehtiyojlar orasida o'qishga, faollikka, xabar, axborot va ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyojlar muhim rol o'ynaydi. Motivga genetik yondashilganda shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bola tug'ilgandan boshlab bevosita faollik ko'rsatishga moyil bo'ladi: u kuladi (noverbal muomala shakli), qimirlaydi (fazoda o'rin al-mashish), qo'l va oyoqlarini harakatlantiradi (moslashish), o'ynaydi, so'zlashadi (shaxslararo munosabatga kirishish), savollar beradi (dialogik muloqot va boshqalar). Bunga o'xshash xatti-harakatlarning o'zi

ularni qoniqtiradi, voqelikni insonning axborotga nisbatan ehtiyojini tajribada ko'rsatish mumkin: agar tekshiriluvchini ma'lum vaqtga tashqi olamdan ajratib qo'yilsa, uning irodasi hissiyoti, intellektida buzilish sodir bo'ladi, zerikadi, irodaviy harakat tizimi yo'qoladi, fikr yuritish jarayoni parchaladi, il-lyuzion, gallyutsional holatlarga uchrashi mumkin. Ijtimoiy turmush sharoitida faollik va axborot taqchilligi odamlarni salbiy his-tuyg'u va kechinmalarga olib keladi, faoliyat tuzilishi va uning dinamikasiga putur yetkaziladi. Ijtimoiy turmushda yuzaga keluvchi ehtiyojlar orasida o'quv faoliyatida muhim rol o'ynaydi va uni kuchaytiruvchi ijobiy xususiyatga ega bo'lgan va ijtimoiy gnostik ehtiyojlar alohida ahamiyat kasb etadi; shaxsni kamol toptirish jarayonida hukmron mavqeini egallaydi. Ularning turkumiga bilimlarga bo'lgan ehtiyoj, jamiyatga foyda keltirishga intilish, umumbashariy yutuqlarga erishishga intilish kabilar kiritiladi.

Bunday manbalarni talabchanlik, orzu va imkoniyatlar tashkil qiladi. Jumladan, talabchanlik insonga faoliyat va xulq-atvorning muayyan turini hamda shaklini bahsh etadi. Mazkur holatni quyidagi mulohazalar yordamida izohlash mumkin: ota-ona boladan ovqatni qoshiqda yeyishni, stulda to'g'ri o'tirishni, «rahmat» deyishni talab qilsa, o'quv muassasi tinglovchi yoki talabdan belgilangan vaqtda darsga yetib kelishni, o'qituvchilarga quloq solishni, berilgan vazifalarni bajarishni qat'iy belgilaydi. Jamiyat esa o'z fuqarolariga xulq, fe'l-atvor orqali ma'lum axloqiy normalar va qoidalarga rioya qilishni, shaxslararo muomalaga kirishish shakllari, vositalarini egallashni hamda aniq vazifalarni bajarishga amal qilishlarini o'rgatadi.

Psixologiya fanining terminlari mohiyatida orzu va intilish jamiyatning shaxsga nisbatan munosabatining ifodalanish mexanizmi yotadi. Etnopsixologik stereotiplarda uyg'unlashgan xulq-atvor belgilari va faoliyat shakllari o'ziga xosdir. Odatda, odamlar bir yoshli bola tik yurishi kerak, deb hisoblaydilar va ular bu tuhfani boladan kutganligi tufayli unga alohida munosabatda bo'ladilar. Psixologiyada kutish tushunchasi talabdan farqli o'laroq, faoliyat yuzaga kelishi uchun umumiy zamin yaratadi. Imkoniyatlar ma'lum faoliyatning kishilar irodasi bilan bog'liq (iroda harakati (kuchi), sifati, prinsipi) ob'ektiv shart-sharoitlarni o'zida aks ettiradi. Agar odamlarning shaxsiy kutubxonasi adabiyotlarga boy bo'lsa, ularning o'qish imkoniyati yuqori darajaga ko'tariladi. Kishilarning xulq-atvori psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, ko'pincha ularning ob'ektiv imkoniyatlaridan qilib chiqadi. Agar bolaning qo'liga tasodifan biologiya kitobi tushib qolsa, uning shu predmetga nisbatan qiziqishi ortishi kuzatiladi.

Shaxsiy manbalar – odamlarning qiziqishlari, yo'nalganligi va dunyoqarashlarining jamiyat bilan munosabatini aks ettirishdan iborat.

Inson faolligining manbai – qadriyat orqali ifodalanib, shaxs mavqei, rolida o'z aksini topadi. Psixologlarning so'nggi yillarda o'tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari fikrlash jarayonlarini guruh sharoitida, dars paytida, ya'ni munozarada ham o'stirish va bunga qisqa yo'llar bilan erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Ularning fikricha, guruhda hamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o'sishiga ijobiy tasir ko'rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatini samaraliroq qiladi. Yaxshi tashkil etilgan munozara jarayoni, undagi faoliyat shakli, individual tafakkurning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jamoada ishlash ko'plab nostandart fikrlarning tug'ilishi, ular ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi allaqachon isbot qilingan. Ana shunday samara beruvchi metodikalardan biri «breynshtorming» deb atalib, uning lug'aviy ma'nosi «miyani zabt etish», «aqliy hujum» dir. Bu usulni birinchi marta amerikalik olim A.Osborn o'tgan asrning 30-yillardayoq taklif etgan va uning yordamida yirik loyihalarni rejalashtirish hamda uning natijalarini oldindan bashorat qilishda ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. To'g'ri tashkil etilgan breynshtormingning amaliy afzalliklari ko'p, faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak: jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas;

- har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan holidir;

- mantiqiy fikrlardan ko'ra fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikrlar muhim;
- fikrlar bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi;
- bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu tinglovchining deb ajratilmaydi, ya'ni ular – muallifsizdir;
- fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish va ularni tadbqiq qilish zarurligi ko'p bora ta'kidlangan. XX asrning ikkinchi yarmida hech bir mashhur pedagog amaliyotda qo'llanuvchi hamda izdoshlariga mashg'ulotlarni o'zlari o'tgan darajagidek yuqori saviyada o'tish imkoniyatini beruvchi pedagogik turkum ishlab chiqmagan. Bunga sabab, o'tmishdagi atoqli pedagoglarning uslublari nazarimizda ma'lum darajada ustozning shaxsiyatini o'zida jamlanganligida bo'lsa kerak. Izdoshlarning ishlari qandaydir darajada yaxshilangan, lekin asoschi ustozlarnikidek bo'lmagan. Sanoatda «yuksak texnologiyalar» degan tushuncha mavjud. Odatda ular murakkab va boshlang'ich sarmoya talab qiladi, fanning so'nggi yutuqlariga asoslangan bo'lib, xodimlarning maxsus tayyorgarligini taqozo etadi. Lekin ular raqobatbardoshlikni, mahsulotning yuqori sifati va natijada katta daromadni ta'minlaydilar. Pedagogik texnologiyani ta'lim va tarbiyada «yuksak» uslubiyatga taqqoslash mumkin, lekin uning tadbqiq etilishi ko'p sarf-harakatni talab qilmaydi. Pedagogikada ishlab chiqish turkumini yaratish qiyinchilik tug'diradi. Bunga o'qitish (ta'lim-tarbiya)ga oid vazifalarning ko'pligi, ta'limning tashkiliy elementlari va o'quv materiallarining turli- tumanligi, ta'lim oluvchilarning individual xislatlariga bilimlarni o'zlashtirishda namoyon bo'ladigan qonuniyatning mavjudligi xosdir. Mazkur individual xislatlariga bog'liq qonuniyatlarga tinglovchilarning idrok etishdagi o'ziga xosliklari va boshqa omillar to'sqinlik qiladi. Pedagogik texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan malakali pedagoglar texnologik yondashish avvalgilaridan ancha samarali ekanligini biladilar.

Demak, maktab o'qituvchilari, o'rta maxsus, mutaxassislik va oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari jamoasi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish hamda ularni kadrlarni o'qitish va tayyorlash sifatini oshirish uchun amalda qo'llashlari zarur. Bu esa Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga mos keladi. Ta'kidlash joizki, texnologiya deganda yana jarayonlarning amalga oshirilishi yo'llari va vositalari, shuningdek ob'ektning sifat o'zgarishiga olib keluvchi bilimlarning umumlashmasi tushuniladi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya (berilgan) qo'yilgan maqsadni baholashga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etuvchi usullarni amalga oshirishni bildiradi. Texnologik yondashuvda aniq o'qitish vazifalari bilan belgilangan, maxsus fragmentlardan tashkil topgan o'quv materiallari o'zining inter faol usullarini nazarda tutadi, har bir fragment esa test va zarur qo'shimchalar bilan to'ldiriladi. O'quv ishi (etalon) yuqori natijalarga erishishga mo'ljallangan. Texnologik yondashuv reproduktiv tus beradi. Shu bois bunday o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalarning zarur minimumi ham samarali natija beradi. Hozirgi kunda ayrim olimlar reproduktiv o'qitishga ikkinchi darajali masala sifatida qaraydilar. Lekin aslini olganda ko'pchilik kishilar aynan reproduktiv mehnat bilan bandlar, aks holda jamiyat o'zini eng zarur narsalar bilan ta'minlay olmasdi. Ta'limda ham tarbiyalanuvchilarning reproduktiv faolligini asosiy o'rin egallashi zarur, aynan mana shu shartga rioya qilish bilan kerakli bilimni egallash va ijodiy fikrlash uchun sharoit yaratish mumkin. Yana shuni nazarda tutish kerakki, ta'lim jarayonida ma'lum mavzuni o'rganishda bitta o'quv savoli maqsadli tarzda reproduktiv darajada, qolganlari esa ijodiy yoki izlanish orqali o'zlashtiriladi. Shu tarzda reproduktiv darajada texnologik yondashuvning o'zlashtirilishi pedagogik texnologiyalarning mahsuldor va ijodiy izlanish darajasiga o'tishning zarur sharoitlarida mustaqil asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, pedagogik texnologiyalarga evristik, ijodiy yondashuv imkoniyati mavjud. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida shunday vaziyat ko'zga tashlanadi: bir tarafdin, tinglovchi va talabalar o'qish samaradorligini

o'shinish maqsadida pedagogik texnologiyani o'zlashtirishlari, chunki pedagogik texnologiyalarning belgilari pedagogikaning kelgusi innavatsiyalarida qo'llaniladi; ikkinchi tomondan esa pedagogik fanlarning yangiliklarini o'zlashtirish axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, ijodiy tafakkurning rivojlanishi va boshqalar va zamon bilan ham nafas harakat qilish kerakligi. Shuningdek, olimlar orasida dasturlashtirilgan o'qitish va muammoli o'qitish tushunchasining mazmuni va mavqei bo'yicha mohiyatiga doir aniq qarashlar yo'q.

Dasturlashtirilgan va muammoli o'qitish tinglovchilarning faqat bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish jaryonlarini boshqarish sifatida tushunilmoqda. Muammoli o'qitishning mavqeini belgilovchi sifatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: o'qitish usullari, o'qitish shakli, o'qitishning tamoyillari, o'qitishning tuzilishi muhim yo'nalish. Dasturlashtirilgan va muammoli o'qitishning an'anaviy tizimi tinglovchilarning bilish faoliyati va o'qitish jarayonini boshqarish samaradorligini oshiradi. Lekin amaliyotga mutaxassislarni tayyorlashda dasturlashtirilgan va muammoli ta'lim hozir to'liq targ'ib qilinmaganligini ko'rsatmoqda. Buning o'ziga xos sabablari bor. Ulardan biri – o'qituvchilarning ko'pchiligi dasturlashtirilgan va muammoli o'qitishga psixologik jihatdan tayyor emasligi. Ta'limga muayyan ko'lamda va darajada bilim, ko'nikma va malaka berishga, shuningdek shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan murakkab talab qo'yilgan. Dasturli o'qitish kibernetika fani taraqqiyoti natijasi sifatida paydo bo'ldi. Bu ta'lim ikkin tomonlama xususiyatga ega bo'lib, o'qituvchi ta'lim beradi va tinglovchi ta'lim oladilarning hamkorlikdagi faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida yaqqol tasavvur, tasviriy ko'rsatma, «jonli mushohadaga undovchi» materiallarning roli nihoyatda muhimdir. O'zlashtirilayotgan o'quv materiallarining ma'lum qismi hissiy organlarimiz tomonidan aks ettiriladi. Talabalar bilimlarni egallash paytida yaqqol predmetlar, ob'ektlar xodisalar, holatlar, jismlar yoki ularning ramziy tasvirini kuzatish natijasida yaqqol tasavvur orqali obrazlar yaratadilar. Psixologik nuqtai nazardan ko'rsatmalilik tabiiy-predmetli, tasviriy va jonli nutq yoki jonli mushohada turlariga ajratiladi. Respublikamizning sanoati, fan va texnikasi matematik-hisob kitob va kibernetika yutuqlarini zudlik bilan halq xo'jaligiga joriy etishni taqozo qilmoqda.

Darhaqiqat, kibernetikaning ob'ektiv qonuniyatlarini o'quv jarayoniga qo'llash ta'lim oluvchilarni kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Ko'pgina psixologlar ta'lim jarayonini tahlil qilar ekan, uni yetarli darajada boshqarib bo'lmaydigan jarayon deb ta'kidlaydilar. Lekin uni butunlay boshqarib bo'lmaydigan, stixiyali ravishda tarkib topadigan jarayon deb atash noto'g'ri. Bu xol aniq maqsadni ko'zlab ta'lim berish g'oyasiga butkul ziddir.

2.3. Pedagogik qobiliyat va uning psixologik xususiyatlari.

Ta'limi tizimini takomillashtirish, talabalarni jahon standartlari talabiga javob beradigan bilimlar va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiga, uning kasbiy tayyorgarlik darajasiga, mahoratiga bog'lik. O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muxim ahamiyatga egaligi aniqlanadi.

Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan talablari kun sain ortib bormokda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir.

Zamonaviy oliy ta'lim o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi guruxdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi talabalar uchun o'quv jarayonida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidir. Ko'pchilik o'qituvchilar o'z vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O'qituvchi pedagog jamoa a'zosi sifatida pedagogik faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o'qituvchilari va gurux murabbiylarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o'qituvchi talabalarining ota-onalari va jamoatchilik oldida ma'ruzalar o'qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar targ'ibotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko'pligi uchun jamiyatning talabalar oldiga qo'ygan talablari tushunarlidir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat-kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muximi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'lik hislatlariga qaratilgan. O'qituvchining eng muxim xislatlari qo'yidagilardan iborat:

-o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir;

-ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada xis etishi;

- olijanobligi, aqli farosati, ma'naviy pokligi ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;

-o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-tokatli, bardam, matonatligidir.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir;

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik, g'oyalariga sodiqlik ruxida tarbiyalashi, o'z vatani tabiatga va oilasiga bo'lgan muxabbati,

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlaridan xabardor bo'lishi,

-yosh pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigeniyasidan chuqur bilimlariga ega bo'lishi

- o'zi dars beradigan Fan bo'yicha mustaxkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanidan erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi,

- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi

- o'z ishiga ijodiy yondashishi

-yoshlarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi

- pedagogika texnika (mantik, nutq, ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi,

- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Xar bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigon bo'lishiga intilishi shart.

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatidan tevarak – atrofdagi kishilar ma'muriyati, hamkasblari, talabalar va ularning ota-onalari undan nimalarni ko'tishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyok muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa ko'tishlar garchan jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga mos kelsada, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin.

Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishi xalq ta'limi bo'limlari va oliy ta'lim professor o'qituvchilarining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har hil baholaydilar. Jumladan , oliy ta'lim professor o'qituvchilaridan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishni talab qilsalar, raxbariyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablari uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga oliy ta'limning kafedra mudirlari o'qituvchilarining talabalar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishini bilishini nakadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar, maktab direktorni esa bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigon talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar , farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. Talabalar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar.

Jumladan:

- birinchidan o'qituvchining odamgarchiligi, adolatligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari,
- ikkinchidan – o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'lik tashqi xislatlari va xulq – atvoriga qarab,
- uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'lik xislatlariga qarab xarakterlab beradilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormokda.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar turli xilda ijtimoiy ko'tishlar, pedogogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayerligi muayan o'qituvchining pedogogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi. Shunisi muximki, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Bu qanday xislatlar ekan.

O'qituvchining shaxsiy hislatlari;

- -bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevis;
- -amaliy- psixologik aql-farosatlilik;
- -mexnatsevarlik;
- -jamoat ishlarida faollik;
- -mehribonlik ;
- -kamtarlik;
- -odamiylik, dilkashlik;
- -uddabironlik mustaxkam xarakterga ega bo'lish ;
- -o'z bilimini oshirishga intilish;

2). Kasbiga xos bilimi;

- -ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad
- va vazifalarini tushunishi
- -psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;
- -Etnopsixologik bilimlarni egallash;
- -Hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi;
- -Hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallanganligi;
- -Talabalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;
- -o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi ;
- -talabalarga tarbiyaviy ta'sir etishni bilishi :
- - ota –onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi ;

3) O'z kasbiga xos hislatlari ;

- - milliy qayta qurish mafkurasini bilan mustaqil davlat mafkurasini tushinishi
- - zamonaviy ta'lim tizimida olib boriladigan o'quv tarbiya jarayonida umum insoniy boyliklar, milliy an'analar va urf odatlar ahamiyatini tushunishi;
- - o'qituvchining kuzatuvchanligi
- - o'z diqqat e'tiborini taqsimlay olishi
- - pedogogik fantaziya (hayol) ning rivojlanishi
- - o'ziga tankidiy munosabatda bo'lishi
- - o'zini qo'lga olishi, o'zini tuta olishi
- - pedogogik takt

- - nutqining emotsional ifodalanishi
- 4) Shaxsiy pedagogik uddaburonligi;
- -dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;
 - -ta'lim va tarbiya jarayonida talabalar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;
 - -pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;
 - talabalarning bilish faoliyatini boshqara olishi;
 - -bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi;
 - -o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi;
 - -o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.
- 5) Tashkilotchilik malakalari:
- -yoshlar jamoasini uyushtira bilishi;
 - -turli sharoitlarda yoshlar jamoasini boshqara olishi;
 - -yoshlarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;
 - -amaliy masalalarini hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi;
- 6) Kommunikativ malakalari;
- -yoshlarni o'ziga jalb etishni bilish
 - - yoshlar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish
 - -yoshlarning jamoalararo va jamoa ichida o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilish;
 - -bolalar va ota-onalar bilan tashkardan aloqa bog'lashni bilish.
- 7) Gnostik malakalari;
- - bolalarning asab –psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi.
 - - o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy taxlil qila olishi;
 - - boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi;
 - -psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
 - -talabalarning to'g'ri tushunib, ularning xulq- atvori sabablarini tushuntirishni bilishi;
- 8) Ijodiy islohotlari;
- - pedagogik maxoratini takomillashtirishga intilish;
 - -talabalarni tarbiyalash dasturini ishlab chikish va uni amalga oshirish qobiliyati;
 - -o'zini talaba o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;
 - -avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati;

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Pedagogik ijodkorlik manbai—bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba—muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini, talabalarning ta'lim tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular yordamida o'quv-tarbiyaviy ishlarda eng yukori natijalarga erishish imkoniyatlari ta'minlanadi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.

Xar bir jamiyatda taraqqiyot omillarini yaratuvchilar, faol ishtirok etuvchilar, va ishtirokchilarning o'zni alohida ahamiyatni kasb etadi. Shu o'rinda jamiyatning asosiy bo'g'inida yoshlarni ta'lim – tarbiyasiga to'la ma'sul shaxs bu o'qituvchi ekanligini e'tirof etish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda, o'qituvchilik kasbining o'ziga xos pedagogik –psixologik xususiyatlarini ,

ularni shakllantirishda ta'sir vositalarining o'rganib borish asosida barcha shart sharoitlar yaratilishi zamon talabidir. Har bir o'qituvchi o'z kasbining fidoiysi sifatida talba nigohida namoyon bo'lishi kerak. O'qituvchi qo'lida bo'lg'usi insonning taqdiri yotadi. O'qituvchi shaxsining professional, ya'ni kasbga yo'naluvchi sifatlari, avvalo, uning bilim va bilim berishga bo'lgan ehtiyoji, istedod va qobiliyati, axloqiy sifatlari: haqqoniyligi prinsipiialligi, talabchanligi, mexribonligi, o'z burchini his qilishidir. O'qituvchining professional ahamiyatga ega bo'lgan muxim sifatlari - bolani sevishi, talabaning ichki dunyosini tushunishga qobiliyatligi, ularga, maqsadga muvofiq pedagogik-psixologik tasir ko'rsatishi, talabaning ayni paytdagi psixologik holatini tushunib, yosh hamda individual xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rishidir.

Demak, zamonaviy o'qituvchining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarni shakllantirish va o'z, shaxsiy xislatlarini kasbiy ko'nikmalar bilan moslashtirish zaruriy jarayon ekan.

Nazariy tekshirishlarning borishi psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida dinamik va samarali xususiyatlarni hisobga olgan holda o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos uslublarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Mazmunli xislatlar:

- 1) O'qituvchini ko'proq ta'lim jarayoniga va ta'lim natijasiga jalb qilish;
- 2) O'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirishda adekvatlik va noadekvatlik;
- 3) Pedagogik faoliyat usul va vositalaridan foydalanishda operativlik (ishchanlik) va konservatizm (eskilikni yoqlash);
- 4) Refleksivlik - to'satdan bajarish;

Dinamik xislatlar:

- 1) Moslashuvchanlik - (o'qituvchi sharoit o'zgarishiga tez javob qaytaradi, ya'ni o'zgaradi, bir xil ishdan ikkinchisiga tez ko'chadi, dastlabki dars rejasini tez o'zgartirib turadi) - an'anaviylik (o'qituvchi sharoit o'zgarishiga qiyinchilik bilan moslashadi, ilgari tuzilgan dars rejasiga qat'iyon amal qiladi);
- 2) Ta'sirchanlik (o'qituvchi darsga ko'pincha tayyorlanmaydi, ko'p hayajonlanadi) - ehtiyotkorlik (o'qituvchi darsdagi xarakatlarini oldindan o'ylab qo'yadi, ularning natijasini tahlil qiladi);
- 3) O'zgaruvchan sharoitga nisbatan barqarorlik (o'qituvchi o'z faoliyatida darsda vujudga keladigan sharoitga qarab emas, balki shaxsiy maqsadiga qarab ish tutadi) - o'zgaruvchan sharoitga nisbatan beqarorlik (o'qituvchining xulq-atvori, darsda vujudga keladigan sharoitga butun guruh va alohida o'quvchilarning tayyorgarligiga va kayfiyatiga bog'liq bo'ladi);
- 4) O'quvchilarga barqaror hissiy ijobiy munosabat (o'qituvchi bir xilda chidamli, hayrihox, uning kayfiyati tez ko'tarilib, tushib ketmaydi) - o'quvchilarga nisbatan beqaror hissiy munosabat (o'qituvchi-o'quvchilar shaxs xususiyatlarini va faoliyatini baholashda sharoitga qarab o'zgarishi bilan farqlanadi, muvozanatdan tez chiqadi);
- 5) Shaxsiy tashvishning mavjudligi (o'qituvchi xato va muvaffakiyatsizliklarga yuqori sezgirligi, notinchligi, xissiy xavotirlanishining mavjudligi bilan xarakterlanadi) - shaxsiy tashvishning yo'qligi (yuqorida qayd etilgan belgilar yo'q);
- 6) Yomon sharoitlarda refleksiyaning o'ziga qaratilganligi (o'qituvchi muvaffakiyatsiz darsni tahlil qilganda o'zini aybdor deb sanaydi va javob sifatida o'z hulqini to'g'rilaydi) - refleksiyaning sharoitga qaratilganligi (o'qituvchi muvaffakiyatsizlikda o'quvchilarni, hamkasblarini aybdor deb hisoblaydi).

3.BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK QIYOFASINI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAXLILI.

3.1 Ta'limda psixologik tayyorgarlik tushunchasi va uni shakllantirish shart-sharoitlari.

Ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'qituvchi amalga oshiradi. Respublikamiz hukumati ta'lim sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish shariotida ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadga erishish, o'qituvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. O'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodga ta'lim berish, tarbiyalash sifatini oshirishga hissa qo'shayotgan ijodkor o'qituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda.

O'qituvchi faoliyatida o'z faolligini oshirish imkoniyatlari quyidagilarda aks etadi:

- tinglovchilarning o'quv faoliyatini tashkillashtirish va boshqarishda;
- ta'lim oluvchilarda ijobiy o'qish motivlarini shakllantirish va ularning ijodiy imkoniyatlarini o'stirish orqali o'qishga qiziqish uyg'otishda;
- ta'lim oluvchilarga ishlarning turli xil usullari va o'quv materiallarini tizimlashtirgan holda izohlab berishda;
- o'qituvchilarning metodik usullar va oqilona vositalardan keng ma'noda foydalanishlarida;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda kasbiy mahoratlarini takomillashtirishda;
- tinglovchi va kursantlarning tayyorgarlik darajasini tekshirish, ularning bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlarini baholashda.

Ta'lim oluvchilarning o'qish-bilim olish faoliyatini boshqarishdan iborat va maqsadga erishish uchun o'qituvchi o'zining faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiradi. O'qitish- bu o'qituvchining ko'p qirrali, bosqichma-bosqich kasbiy pedagogik faoliyatidir. Unga o'qituvchining konstruktiv, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, kommunikativ va gnostik faoliyatlari kiradi: Konstruktiv faoliyat samarali ishlashi uchun har bir o'qituvchi pedagogik – psixologik kasbiy mahoratga ega bo'lishi kerak: bunda,

- o'quv predmetining har bir mavzusi optimal mazmun, vaqt hamda savollar bo'yicha aniq, mantiqiy taqsimlanishi, o'qituvchi ijodiy tafakkurini rivojlanishi;
- mashg'ulotda o'z harakatining ketma-ket va tizimlilikini qayta ko'rib chiqish, perseptiv xususiyatlarning shakllanishi, shuningdek har bir mashg'ulotni o'tkazish uchun reja asosida ssenariy tuzish;
- ta'lim oluvchilarning mashg'ulotga munosabatini belgilash, munosabat motivlarini mazmunini to'g'ri shakllantirishi;
- kimni chaqirish, nimani so'rash, kimga qanday muammolar qo'yishni bilish, muomala va so'zlash madaniyatiga ega bo'lishi, so'zning psixologik ta'sirini xis qila olishi, o'qituvchi o'z faoliyatida mashg'ulotdagi mavjud qiyinchiliklarga oldindan ko'zi yetishi, mashg'ulotga o'quv guruhining tayyor emasligi, tinglovchi va boshqalarning sifatli ishlar uchun me'yoriy hujjatlar, adabiyotlar hamda tarqatma materiallarning yetishmasligi va ushbu holatdan chiqish yo'llarini izlash;
- o'qituvchining tashkilotchilik faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: har bir mashg'ulotni o'tkazishda har qanday to'siqqa qaramay, o'zining oldindan o'ylab qo'ygan rejasini amalda joriy etish;
- ta'lim oluvchilarni mashg'ulotlarda uzluksiz boshqarib turish va ularda har doim o'quv materiallarini idrok qilishlari uchun qiziqish uyg'otish;
- tinglovchilarda darsdan tashqari vaqtlarda turli xil o'quv-tarbiyaviy ishlarni o'tkazish va tashkillashtirish shakllarini tanlash.

Yuqoridagi xolatlarni taxlil qilar ekanmiz, o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi o'ziga xos ijtimoiypsixologik xususiyatlarini amaliyotda shakllanishi yaratilgan shart sharoitning o'ziga

xosligi bilan belginaishiga ishonch hosil qildik. Ya'ni ijtimoiy psixologik shart sharoitlar o'qituvchi faoligini oshirish va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, kasbiy bilimlarini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Keyingi holalarni o'rgan ekanmiz, o'qituvchining o'z faoliyati davomida kasbiy yo'nalishi bo'yicha ma'lum bir tadqiqot olib borishlari, uning ahamiyati, va pedagogik faoliyat natijalarini samarali bo'lishini ta'minlash imkoniyatlarini bera olishi o'z isbotini topdi. Xar bir o'qituvchi o'z faoliyatidagi amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, talabalarni tayyorlashlari va tajdqiqot olib borish uchun uning tarkibiy tuzilmasini bilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maqsadli shakllar, samarali usullar, oqilona uslublar va o'qitish vositalarining amaliyotga qaratilgan yangi ijodiy yo'nalishlarini ishlab chiqish va joriy etish malakalarining shakllanganligi;
- Pedagogik amaliyotidagi ilg'or tajribalar va fanning zamonaviy yutuqlarini mashg'ulot mazmunida aks ettira olish qobiliyatlarining shakllanganligi;
- o'quv tarbiyaviy jarayonida pedagog-novatorlar va o'z jamoasining ilg'or pedagogik tajribalarini tatbiq etish;
- o'quv va ilmiy tadqiqot ishlarini mohirlik bilan boshqarish.
- kommunikativ faoliyati - o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'qituvchi va ta'lim oluvchining o'zaro munosabati quyidagicha izohlanadi:
- o'qituvchi nutqining mashg'ulotlarda xamisha ta'lim oluvchilarga qaratilgan bo'lishi;
- o'qituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, tinglovchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turishi;
- har bir tinglovchiga individual yo'l topishi va ular bilan hamkorlik darajasida ishonchli munosabat o'rnatishi;
- pedagogik jamoadagi jamoadoshlar va tinglovchilar bilan muloqotda pedagogik ritmni kuzatish.

O'qituvchining gnostik faoliyati quyidagilarni ko'rib chiqadi:

- tinglovchilarni o'rganish;
- tinglovchilarni o'rganish uchun pedagogika va psixologiyaning tavsiya qilingan vosita va uslublari, usullari, shakllarining mazmunini yoritish;
- o'z bilim va tajribalarini oshirish maqsadida pedagogik faoliyat va shaxsiyatining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish.

O'qituvchilarning yuqorida ko'rsatilgan barcha turdagi pedagogik faoliyati ta'lim oluvchi, tarbiyaviy, tashkilotchilik, o'quv-uslubiy, o'quv-tadqiqot, ijtimoiy-pedagogik vazifalar orqali joriy etiladi. Bu vazifalar oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash jarayonida ta'lim va tarbiya tamoyillarini joriy etish bo'yicha o'qituvchilarning ishlash texnologiyasini tavsiflaydi. O'qituvchi o'zining pedagogik vazifalarini bajarishda o'quv materiallar turlarini tizimlashtirish uchun maqsadli shakllar, samarali usullar, oqilona uslublar va ta'limning kengroq maqsadga yo'naltirilgan vositalaridan foydalanadi.

Shunday qilib, o'qituvchi o'z faoliyati jarayonida ta'lim oluvchilarni o'quv materialini qabul qilishga tayyorlaydi, ularga psixologik ta'sir etish orqali xulq atvorida ijobiy xislatlarni shakllantiradi, ularni to'liq mutaxassislik va o'quv fanlariga kasbiy qiziqishi va bilish faoligini rivojlantiradi. Bir vaqtning o'zida o'qituvchi tinglovchi va kursantlarning mustaqil ravishda bilimlarga erishishlarini, shuningdek, oldilarida turgan kasbiy faoliyatdagi ko'nikma va malakalarni egallashga o'rgatadi. U ta'lim oluvchilarning ishlarini tahlil qiladi, o'zining pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy baholaydi va dasturiy materiallarni o'zlashtirishni tekshirishni amalga oshiradi. Bu kompleks o'zaro bog'liq vazifalarni hal etishda o'qituvchi o'quv-tarbiyaviy jarayonda, tashkilotchi va tarbiyachi, pedagog sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi, ta'lim oluvchilarni bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishni, ularning ko'nikma va malakalarini shakllantirishlarini o'qitish jarayonida

amalgam oshiradi. Bilim psixologik nuqtai nazardan-bu inson ongida ob'ektiv olam, uning tasviriyl obrazlari, tushuncha va ular shakllarining aks ettirilishidir. Pedagogik bilimlarni o'zaro bog'liq faktlar, tushunchalar tizimi, nazariy munosabat, formulalar, qonunlar va ilmiy nazariyalar sifatida

aniqlanadi. Bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchi tomonidan ta'lim faoliyatini tashkil etishdir, psixologik bilish jarayonlari birinchi navbatda, xotira, tafakkur, tasavvur va hayolga tayanadi. Shundan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga bilishning barcha uch darajasi taalluqlidir:

- hissiy idrok,
- mavhum tafakkur va
- amaliyot.

Bu yerda bilimlarni o'zlashtirishning asosiy bosqichi sifatida namoyon bo'ladi:

a) o'quv materialini idrok etish vizual va eshittirish orqali, shu bilan birga, o'qituvchilar tomonidan turli xil ko'rgazma qurollar-predmetlar, tasviriyl, so'z-obrazli va amaliy tasvirlar hisobiga chuqur idrok etishga erishiladi;

b) o'quv materialini anglash olingan ma'lumotlarni qayta ishlash. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan uch bosqichda amalga oshiriladi: oldingi o'quv materialini mantiqiy bog'lashni ta'minlovchi yangi ma'lumotlarni aniqlash tizimi; noma'lum o'quv materiallarini o'zlashtirilgan, ma'lum materiallar bilan bog'lash; o'rganilayotgan materialda predmetlararo, ichki predmetlararo va mavzulararo aloqalar o'rnatish:

v) o'quv materialini esda olib qolish. qayta ishlangan ma'lumotlarni xotirada saqlash. O'qitilayotgan har bir mavzu va fan yuzasidan o'qituvchining didaktik savodxonlik ustanovkasidan muvafaqqiyatli o'tadi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim olayotganlarning bilish faoliyatini quyidagi yo'llar orqali uzluksiz faollashtirib boradi: o'quv materialini eslab qolishning qiyosiy yo'nalishi tovush pardasini o'zgartirish, darajasini pasaytirish, maxsus iboralar ishlatish; bu juda muhim; bu sizlarga amaliyotda kerak bo'ladi; buni mustahkam esda olib qolish; mazkur mavzuga, predmetga aloqador bo'lgan yorqin misollar, dalillar, chuqur ilmiy asoslangan amaliy harakatlarni tanlash hisobiga qiziqishlar singdiriladi. Natijada ta'lim olayotganlar amaliyotda sinalgan, faoliyatda natijalarga erishish, tushunchalar mohiyatini tushunish aniq bilimlarni o'zlashtirishga erishiladi.

g) bilimlarni mustaqamlash. Bu bilimlarni o'zlashtirishning so'nggi bosqichi bo'lib, unda o'qituvchi ta'lim olayotganlarning egallagan bilimlarini amaliyotda ishlatishni o'rgatadilar, o'qiyotganlarda ko'nikma va malakalarni shakllantirishni tashkil etadilar. Malaka psixologlarning fikriga ko'ra analogik sharoitlarda bir operatsiyani bir necha marotaba takrorlash yo'li bilan hosil qilingan, avtomatlashtirilgan ongli harakatlar komponenti hisoblanadi. Pedagogika malakani ko'p marotaba takrorlash orqali aniqlaydi: o'quvlar, ma'lum faoliyat jarayonining avtomatlashuvida yuz beradi. O'qituvchi malakani qayta ishlash uchun mashg'ulotlarda turli usullarni qo'llaydi. Ulardan asosiysi mashqlar hisoblanadi. Malakaning ichki ko'rinishini bir-biri bilan chambarchas bog'langan fiziologik va psixik jarayonlar, ya'ni malakali mutaxassis tez, aniq va erkin harakatlar bajarishda tashqi tomondan namoyon bo'ladi. Malakalar ikki – oddiy va murakkab ko'rinishda bo'ladi. Malakani ichki ko'rinishdagi bog'liqlik turlaridan tashqari, oddiy malakalar quyidagi ko'rinishlariga ajratiladi. hissiy (sensor)

intelektual (aqliy) harakatli (motor) Murakkab malakalar bir necha sodda malakalardan tashkil topadi. Ko'pgina malakalar o'zlashtirilgan bilimlar asosida shakllanadi, keyinchalik esa oddiy uquvlarni qo'llash orqali erishiladi. Uquvlar psixologlarning fikriga ko'ra ruhiy ta'lim bo'lib, amaliy vazifalarni hal etishda bilimlardan to'g'ri foydalanish va ularni umumlashtirish harakatlari bilan ifodalanadi. Pedagogik nuqtai nazarda uquv egallangan bilimlar asosida turli sharoitlarda oqilona usullardan foydalanib, sifatli va muvaffaqiyatli harakat qilishni ifodalaydi. Ta'lim jarayonida ta'lim olayotganlarda uquvlarning ikki – oddiy va murakkab ko'rinishi shakllanadi. Oddiy uquvlar muayyan operatsiyalarni bajarishda

to'g'ridan-to'g'ri bilimlardan foydalanishni nazarda tutadi, masalan: uskunalarini ketma-ket ishlashini o'zgartirish, qurolni bo'laklarga bo'lish va yig'ishning oddiy harakatlarini bajarish uquvi. Murakkab uquvlar turli shakldagi o'zgaruvchan vaziyatlarda ijodiy va eng maqbul bilim va ko'nikmalardan foydalanishni talab etadi. Murakkab uquv sifatida operativ vaziyatni baholash va boshqaruv qarorlari qabul qilishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ta'lim beruvchi mutaxassislarni tayyorlash, tinglovchilarni yuqori pog'onalariga yetaklaydi: bilimsizlikdan-bilimga, bilmagandan-bilishga. Bir vaqtning o'zida har bir ta'lim beruvchi ta'lim olayotganlarga ta'sir etish jarayonida ichki ishlar organ xodimlariga xos bo'lgan ijobiy sifatlar va zarur kasbiy ishga oid sifatlarni shakllantiradi. Ta'lim beruvchilarga ta'lim olayotganlarning o'zlari mustaqil bilimlarni egallash, o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha katta yordam beradilar.

3.2.Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ijtimoiy-psixologik qiyofasini baholash usullari va ularning taxlili.

O'qituvchi faoliyatini tajribalar asosida o'rganish va ularning ijtimoiy psixologik qiyofasini chizish ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Bunda xar bir o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatidagi individual xususiyatlari, kasbiy qobiliyat va layoqatlari, xissiy irodaviy sifatleri alohida ahamiyatga egaligini e'tirof etish maqsadga muvofiq. Zamonaviy o'qituvchilarning ijtimoiy psixologik qiyofasini ko'plab olimlar organib, ularning o'ziga xosligini isbotlab berganlar.Ular ishlab chiqqan metodiklar asosida biz ham tajribalar olib bordik. Tajriba davomida biz avvalo suxbat usuli orqali o'qituvchilarning kasbga ko'nikma hosil qilishi va kasbiy bilimlari haqida xulosalar oldik.

O'tkazilgan suxbat davomida 20 nafar profer o'qituvchilar ishtirok etdilar.Ulardan 2 nafarai professor, 8 nafari fan nomzodi, dotsent va 10 nafari o'qituvchi asisstantlardan iborat.

	Savol tartibi.	Professor	P.f.n	O'qituvchi asisstant
1	Sizningcha, tarbiyada eng muhimi nima?	88%	89%	88%
2	Yoshlar va boshqa guruh a'zolari bilan oqilona munosabat o'rnatish	86%	89%	75%
3	O'zaro yordamga, hamkorlikga qobiliyatli	75%	70%	68%
4	Ochiq ko'ngil.	70%	68%	
5	Loqayd bo'lishi mumkin	89%	75%	
6	O'ziga ishonuvchan va tirishqoq	89%	75%	89%
7	Dilkash va murosali	70%	68%	70%
8	Alamzada (jahldor).	68%	70%	68%
9	Tobelikni yoqtiradi	68%	70%	68%
10	Shaxsiyatparast (faqat o'zini o'ylaydi).	89%	75%	89%

Natijalarni qayta ishlash va taxlil qilish asosida quyidagicha xulosalarga keldik. Professor o'qituvchilarning o'quv jarayoniga va ijtimoiy psixologik muxitning o'qituvchi psixologiyasiga ta'siri kuchli ekanligi ta'kidlandi. (98 %). fan nomzodlarining fikricha o'quv jarayonida o'qituvchi va talabalar xamkorligini ijobiy bo'lishi uchun avvalo kasbiy bilim, va mahorvat zaruriyligi e'tirof etildi.(78%). Asistent-o'qituvchilarning (85%) o'qituvchining kasbiy bilimdonligi talabalar bilan o'zaro munosabatda muhim ekanligi e'tirof etdilar.

Ikkinchi tajribada biz UzMU mutaxassisleri tomonidan tadqiq etilgan usullardan foydalandik. Ya'ni o'qituvchilar o'rtasida "O'qituvchi shaxsining psixologik qiyofasi" so'rovnomasi, "O'qituvchi shaxsi yo'nalishini aniqlash metodikasining savolnomasi", "O'qituvchi shaxsiy fazilatlarini o'rganish so'rovnomasi (R.B.Kettellning 16 omilli shaxsni o'rganish so'rovnomasi)", "O'qituvchining shaxslararo munosabat darajasini baholash", "O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligini baholash", "Shaxsning nizoli vaziyatlarga munosabat so'rovnomasi", "Jamoaning ijtimoiy-psixologik muhitini baholashi" asosida 25 nafar professor o'qituvchilari bilan tajriba olib borildi.

Quyida metodikalarning mazmun-mohiyati va tajribalar tavsifini keltiramiz.

«O'qituvchi shaxsining psixologik qiyofasini o'rganish» testi

1.Sizningcha, tarbiyada eng muhimi nima?

- 1) talabalarga bilim berish va g'amxo'rlik qilish;
- 2) talabalarni insonlarni hurmat qilishga o'rgatish;
- 3) ularda ma'lum qarashlar va malakalarni shakllantirish.

2. Agar mashg'ulot vaqtida talabalardan biri sizni chalg'itsa, bundan sizning jahlingiz chiqib, darsni davom ettira olmaysizmi?

- 1) ha, jahlim chiqadi, darsni davom ettira olmayman;
- 2) bu mening kayfiyatimga bog'liq;
- 3) yo'q.

3. Talaba dars paytida sizga noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni aytsa (taqdim etsa), siz bunda paytda qanday holatga tushasiz?

- 1) ularga katta qiziqish bilan qarayman;
- 2) xijolat tortaman;
- 3) asabiylashaman.

4. O'quvxonadagi tartibsizlik sizga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- 1) O'quvxonada tartibsizlik bo'lsa, men darsni boshlay olmayman;
- 2) bunga e'tibor bermayman;
- 3) vaziyatga qarab ish tutaman.

5. Agar talabaga nisbatan nohaqlik qilsangiz, siz nohaqligingizni tan olasizmi yoki yo'q?

- 1) nohaqligimni tan olaman;
- 2) nohaqligimni tan olmayman;
- 3) bunday holatga duch kelmaganman.

6. Sizning ish faoliyatingizda eng muhimi nima?

- 1) talabalar bilan yaxshi munosabat o'rnatish;
- 2) hamkasblarim bilan yaxshi munosabatda bo'lish;

- 3) bilmadim.
7. Guruhdagi ayrim talabalar sizning jahlingizni chiqaradimi (asabingizga tegadimi)?
- 1) tez–tez
 - 2) ba’zan;
 - 3) hech qachon.
8. Sizning darsingizda begona kishi ishtirok etsa, bu sizga qanday ta’sir ko’rsatadi?
- 1) meni ilhomlantiradi;
 - 2) mening ishimga sira ta’sir ko’rsatmaydi;
 - s) men erkin dars bera olmayman.
9. Talaba jamoat tartibini buzsa, unga tanbeh berishni o’z burchingiz deb bilasizmi?
- 1) albatta;
 - 2) yo’q;
 - 3) vaziyatga qarayman.
10. Siz barcha talabalar bilan bir xilda iliq munosabatda bo’lasizmi?
- 1) bu haqda biror so’z aytishim qiyin;
 - 2) yo’q;
 - 3) ha.
11. Tanaffus vaqtida siz kimlar bilan muloqot qilishni afzal bilasiz?
- 1) talabalar bilan;
 - 2) hamkasblarim bilan;
 - 3) yolg’iz qolganim ma’qul.
12. Siz darsga hamisha ko’tarinki kayfiyatda borasizmi?
- 1) yo’q;
 - 2) har doim emas;
 - 3) ha.
13. Boshqalardan ko’ra sizning ustunligingizni ko’rsatadigan sifatlaringiz bormi?
- 1) ha;
 - 2) biror gap aytishim qiyin;
 - 3) yo’q.
14. Siz qanday rahbarlar bilan ishlashni afzal bilasiz?
- 1) aniq ko’rsatmalar beruvchi;
 - 2) mening ishimga aralashmaydigan;
 - 3) ijodiy ishlashim uchun imkoniyat yaratib beruvchi.
15. Siz o’zingiz yaxshi bilmagan narsalar haqida mulohazalar bildirganmisiz?
- 1) ha;
 - 2) yo’q;
 - 3) eslay olmayman.

16. Siz talabalariningiz bilan ta'lim muassasasidan boshqa joylarda tasodifan uchrashib qolsangiz qanday holatga tushasiz?

- 1) bunday uchrashuvlar menga huzur bag'ishlaydi;
- 2) noqulay ahvolga tushaman;
- 3) bu menda hech qanday tuyg'u o'yg'otmaydi.

17. Siz biror sababsiz holda ham o'zingizni baxtli yoki baxtsiz his etasizmi?.

- 1) tez-tez;
- 2) kamdan-kam hollarda;
- 3) hech qachon.

18. Sizga hamkasblaringiz va ma'muriyat tomonidan berilgan tanbehlar qanday ta'sir ko'rsatadi?

- 1) tanbehlarga e'tibor bermayman;
- 2) ba'zan mening asabimga tegadi;
- 3) tez-tez asabimga tegadi.

19. Dars paytida siz belgilangan rejaga hamisha qa'tiy amal qilasizmi?

- 1) hamma vaqt amal qilaman;
- 2) tayyorgarlik ko'rmasdan dars o'tishni afzal bilaman.
- 3) vaziyatga qarab ish tutaman.

20. Siz hamkasblaringiz haqida noo'rin gapirganmisiz?:

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) eslay olmayman.

21. Siz «Talaba qanday xulq-atvorga ega bo'lsa, uni shundayligicha qabul qilish kerak», degan mulohazani ma'qullaysizmi?

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) bu gapda ma'lum haqiqat bor.

22. Siz yaqin qarindoshlaringiz, do'stlaringiz va hamkasblaringizning iliq munosabati va qo'llab-quvvatlashiga muhtojmisiz?

- 1) ha;
- 2) ba'zan;
- 3) yo'q.

23. Talabalar yoki hamkasblaringiz bilan bo'lajak uchrashuvingiz haqidagi fikr sizni qanday holatga soladi?

- 1) menga huzur bag'ishlaydi;
- 2) alohida tuyg'u uyg'otmaydi;
- 3) qiyin ahvolga soladi.

24. Agar talaba darsda asabingizga tegadigan qiliqlar qilaversa, siz qanday yo'l tutasiz?

- 1) uni jazolayman;

- 2) unga parvo qilmayman;
- 3) uning nima uchun bunday qilayotgani sababini aniqlashga urinaman.
25. Siz darslarga sidqi dildan tayyorlanasizmi?
- 1) odatda;
- 2) ba'zan;
- 3) har doim.
26. Ishda siz uchun eng muhimi nima?
- 1) talabalarga bo'lgan mehrim;
- 2) meni hamkasblarimning tan olishi;
- 3) boshqalar uchun kerakligimni his etish.
27. Sizning darsni muvaffaqiyatli tashkil etishingiz ruhiy va jismoniy holatingizga bog'liq bo'ladimi?
- 1) tez-tez;
- 2) ba'zan;
- 3) bog'liq emas.
28. Hamkasblaringizning sizga samimiy munosabatda bo'lishiga ishonasizmi?
- 1) ishonaman;
- 2) ishonch yo'q;
- 3) bu savolga javob berishim qiyin.
29. Agar talaba siz qabul qila olmaydigan nuqtai nazarni bildirsa, qanday yo'l tutasiz?
- 1) men uning xatosini tushuntirish va tuzatishga harakat qilaman;
- 2) darhol suhbat mavzusini o'zgartiraman;
- 3) uning nuqtai nazarini tushunishga harakat qilaman.
30. Siz ishga kech kelasizmi?
- 1) ishga doimiy ravishda kech kelaman;
- 2) kamdan-kam holda ishga kechikaman;
- 3) ishga hech qachon kech qolmayman.
31. Agar sizning ko'z o'ngingizda talabani sababsiz jazolashsa, unga qanday munosabat bildirasiz?
- 1) men uni darhol himoya qilaman;
- 2) hamkasbimni alohida xonaga chaqirib, unga tanbeh beraman;
- 3) birovning ishiga aralashishni noo'rin hisolayman.
32. Ish jarayonida kuchli ruhiy va jismoniy zo'riqish sezasizmi?
- 1) odatda;
- 2) ba'zan;
- 3) kamdan-kam holda.
33. Siz o'z kasbiy mahoratingiz yuksakligiga ishonasizmi?

- 1) albatta;
 - 2) unchalik ishonmayman;
 - 3) o‘ylab ko‘rmagan ekanman.
34. Sizningcha, talabalar jamoasi uchun eng muhimi nima?
- 1) tartib-intizomga rioya etish;
 - 2) ziddiyatlarga yo‘l qo‘ymaslik;
 - 3) talabalarning ijodiy ishlashlari uchun imkon yaratish.
35. Siz «bugungi ishni ertaga qoldirma» maqoliga amal qilasizmi?
- 1) doimo;
 - 2) ba‘zan;
 - 3) hech qachon.
36. Siz «Bu talaba meni yoqtirmaydi, shuning uchun unga beradigan maslahatlarim befoyda» degan mulohazani ma‘qullaysizmi?
- 1) ha, to‘la ma‘qullayman;
 - 2) yo‘q;
 - 3) bu gapda ma‘lum haqiqat bor.
37. Ish bilan bog‘liq fikrlar sizga uyqu bermaydigan holatlar bo‘ladimi?
- 1) tez-tez;
 - 2) kamdan-kam;
 - 3) hech qachon xalaqit bermagan.
38. Majlis va pedagogik kengashlarda o‘zingizni qiynagan masalalar bo‘yicha so‘zga chiqasizmi?
- 1) tez-tez;
 - 2) ba‘zan;
 - 3) boshqalarni tinglashni afzal bilaman.
39. Siz o‘qituvchining talabalarga baland ovoz bilan gapirishi, do‘q urishi lozim deb hisoblaysizmi?
- 1) agar talaba shunga loyiq ish qilgan bo‘lsa;
 - 2) bu savolga javob berishim qiyin;
 - 3) yo‘q.
40. Siz ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketishning to‘g‘ri yo‘llarini topa olasizmi?
- 1) hamma vaqt emas;
 - 2) bilmayman;
 - 3) hamisha topa olaman.
41. Siz ta‘til vaqtida talabalar bilan muloqot qilishga ehtiyoj sezasizmi?
- 1) ha;
 - 2) yo‘q;
 - 3) ba‘zan.

42. Siz qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'zingizda yetarlicha kuch topa olasizmi?

- 1) ba'zan;
- 2) odatda, topishga harakat qilaman;
- 3) doimo topaman.

43. Siz o'z ishiga noloq odamlarning buyrug'ini bajarganmisiz?

- 1) ha;
- 2) eslay olmayman;
- 3) yo'q.

44. Darsdagi kutilmagan vaziyatlar haqidagi fikringiz...

- 1) ular o'quv jarayoniga xalaqit beradi;
- 2) yaxshisi ularga e'tibor bermaslik kerak;
- 3) ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanish lozim.

45. Siz odamlarga nisbatan nosamimiy munosabatda bo'lganmisiz?

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) eslay olmayman.

46. Siz o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi ziddiyatli holatni kuzatsangiz nima qilasiz?

- 1) talabani qo'llab-quvvatlayman;
- 2) o'qituvchini qo'llab-quvvatlayman;
- 3) betaraf qolaman.

47. O'quv yili boshi yoki oxirida sog'lig'ingiz borasida muammolar tug'ilganmi?

- 1) ha, bunday bo'lishi tabiiy;
- 2) ba'zan;
- 3) yo'q.

48. Talabalarangiz sizga xayrxohlik bilan munosabatda bo'lishadimi?

- 1) ha;
- 2) hammasi emas;
- 3) bilmayman.

49. Rahbarning talablari mutlaqo asossiz bo'lsa, ular sizda norozilik kayfiyatini uyg'otadimi?

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) javob berolmayman.

50. Ba'zi test savollariga javob berishda qiynaladingizmi?.

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) eslay olmayman.

O'qituvchi shaxsi yo'nalishini aniqlash metodikasining savolnomasi

Ushbu test 27 savoldan iborat bo'lib ularning har biriga uch variantda javob berishingiz mumkin (A, V, S tarzda).

Savolni diqqat bilan o'qing. Javoblar orasidan Sizning ichki dunyoingizga eng yaqin bo'lgan javobni tanlang (faraz qilamiz-«V»). Endi javob varaqasining tegishli satrida «V» harfini tanlab, uning chap yoniga («to'g'ri keladi» degan so'zlar ostiga) belgi («+») qo'ying.

O'sha savolni ya'na bir marta o'qing. Endi holagan ikki javob varianti («A» va «S») orasidan Sizning nazaringizda eng kam to'g'ri keladiganini yoki Siz uchun qimmatini eng past bo'lishini tanlang. (faraz qilamiz «A») So'ngra javob varaqasining yana o'sha satridan «A» harfini tanlab, uning o'ng yoniga («to'g'ri kelmaydi» so'zlari ostiga) belgi («-») qo'ying. Uchinchi javob variantiga esa (bizning misolda-«S») xech qaerda belgilanmaydi.

Demak, har bir satrga ikkitadan «+» belgilgisini qo'yishimiz kerak bo'ladi: birinchisi-A, V yoki S variantlaridan birining «to'g'ri keladi» ustunidagi katakchasiga, ikkinchisi- shu variantlarning «to'g'ri kelmaydi» katakchasiga. Birorta savolni javobsiz qoldirmang. Savollar ustida uzoq o'ylanib o'tirmang. Ba'zan bir vaqtning o'zida ikkita yoki uchta variant javoblari tengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va esda saqlang, eng to'g'ri javob xayolga birinchi kelgan javobdir.

1. Men, qachonki:

- a) qilayotgan ishimni atrofdagilar qo'llab -quvvatlashsa;
- b) biror ishni o'zingma ma'qul, ko'nglimdagidek bajarsam;
- s) atrofida yaxshi do'stlarim borligini xis etsam, o'zimda katta qanoatlanish xosil qilmana.

2. Bordi-yu kelajakda sportchi (futbolchi, volebolchi) bo'lganimda edi:

- a) o'yin taktikasiga ishlov beruvchi kishi-trener bo'lishni istardim;
- b) mashhur o'yinchi bo'lishni istardim;
- s) komanda kapitani bo'lib tayinlanishimni istardim.

3. Haqiqiy pedagogk quyidagi xususiyatga ega bo'lishi kerak:

- a) talabalarga alohida-alohida yondoshib, har biri bilan qiziqsin;
- b) talabalarda predmetga nisbatan shunday qiziqish uyg'otsinki, ular shu predmet doirasida ko'proq bilim olishgan intilsin;
- s) sinf jamoasida shunday muhit yaratsinki, unda har kim qo'rqmay o'z fikrini ochiq-oydin bayon eta olsun.

4. Men:

- a) o'zlari bajargan ishdan zavq oladigan kishilarni juda yoqtiraman;
- b) jamoada ko'pchilik bilan mehnat qilishni yoqtirdigan kishilarni yaxshi ko'raman;
- s) topshirilgan ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq bajarishga intilgan kishilarni yoqtiraman.

5. Agar mening do'stim:

- a) odamlarni tushunadigan, kerak bo'lganda qo'lidan kelguncha yordam bera oladigan bo'lsa;
- b) har doim so'zining ustidan chiqa oladigan, sadoqatli bo'lsa;
- s) aqilli va har narsaga qiziqadigan inson bo'lsa, qanoatlanish xosil qilardim.

6. Eng yaqin do'st shunday kishiki, u:

- a) men bilan yaxshi munosabatlarda bo'lsa;
- b) eng qiyin paytda ham ishonchni oqlaydigan bo'lsa;
- s) katta hayotiy tajribaga va ko'p yutuqlarga erishgan bo'lsa.

7. Men:

- a) ishimning o'ngidan kelmasligining;
- v) o'rtoqlarim bilan munosabatimni buzilishini;
- s) atrofdagilarni meni tanqid qilishlarini juda istamagan bo'lardim.

8. Eng ayanchli ahvol shundaki, agar o'qituvchi:

- a) ba'zi talabalarni yoqtirmasligini, ularni ustidan kulishini va kinoyasini yashira olmasa;
- b) kollektivda raqobatchilik kayfiyatini yaratsa;

s) o'zi dars bergan fanni yaxshi bilmasa.

9. Bolaligimda eng yaxshi ko'rganim:

a) ko'proq o'rtoqlarim bilan o'ynash edi;

v) qum to'tadsidan uychalar yasab, zavqlanish edi;

s) biron narsa uchun meni maqtashlari edi.

10. Quyidagi ta'rifi berilgan kishilarga o'xshashni juda-juda xohlardim:

a) hayotda katta lavozimlarda ishlagan kishi;

v) o'z ishiga chinakkam berilgan kishi;

s) do'stonaligi va oq ko'ngilligi bilan ajralib targan kishi.

11. Menimcha, maktabning birinchi galdagi vazifasi:

a) hayotdagi to'siqlar, muammolarni hal qilishni o'rgatish;

v) talabaning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

s) odamlar bilan o'zaro xamkorlik kilishga yordam beradigan sifatlarni tarbiyalash.

12. Bo'sh vaqtim ko'proq bo'lganda, nazarimda undan quyidagicha fodalangan bo'lar edim:

a) do'stlarim bilan suhbatlashardim;

v) ko'proq dam olib, xordiq chiqargan bo'lardim;

s) o'zim sevgan ishlar bilan, mustaqil o'qish, o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan bo'lardim.

13. Katta yutuqlarni qo'lga kiritishim mumkin, agar:

a) chexrasi iliq bo'lgan kishilar bilan ishlasam;

v) bajarayotgan ishim menga qiziqarli bo'lsa;

s) qilgan ishmi yaxshi rag'batlantirilishi mamkin bo'lsa.

14. Menga juda yoqadi, agar:

a) odamlar meni qadrlashsa;

v) biror ishni yaxshilab oxiriga yetkazib bajarsam;

s) vaqtimni do'stlar orasida qiziqarli o'tkzsam.

15. Agar men xaqimda gazetaga yozishga qaror qilishsa, men istardimki:

a) biror sohada erishgan yutuqlarimni maqtab yozishsin;

v) men bajargan ishlar haqida gaprilsin;

s) albatta men o'qiyotgan yoki ishlayotgan jamoa haqida gapirilsin.

16. Men juda yaxshi o'qigan bo'lardim, agar o'qituvchi:

a) meni tushunsa va o'zligimni nazaraga olib, to'g'ri munosabat qila olsa;

v) predmetlarga nisbatan qiziqish uyg'ota olsa;

s) dars mavzularini bahs-munozarali qilib yorita olsa.

17. Men uchun eng yomoni:

a) g'ururimning poymol qilinishi;

v) zarur ishimning o'ngidan kelmasligi;

s) do'stlarimdan ajralib qolishim.

18. Menimcha, hayotda eng qadrli narsa:

a) muvaffaqiyat;

v) o'zaro kelishuvda, hamkorlikda ishlash imkoniyati;

s) kundalik hayotda ijodkorlik, hur fikrlilik.

19. Men yoqtirmaydigan kishilar:

a) o'zini boshqalardan past ko'ruvchilar;

v) badjahl, tez-tez janjal chiqaruvchi kishilar;

s) har qanday yangilikka qarshi chiqadigan odamlar.

20. Men uchun quvonch bag'ishlaydi:

a) hamma uchun muhim bo'lgan ish bilan shug'ullanish;

v) yor-do'stlarimning ko'p bo'lishi;

s) odamlarni hayratda qoldirish, hammaga yoqish.

21. Menimcha, rahbar kishi quyidagi xususiyatga ega bo'lishi shart:

a) qo'l ostidagilarga juda yaqin bo'lishi, ularni tinglay bilishi;

- v) obro‘-e‘tiborli, viqor-salobatli bo‘lishi;
- s) o‘ziga va boshqalarga talabchan bo‘lishi.

22. Bo‘sh vaqtimda havas bilan shunday kitoblarni o‘qigan bo‘lardimki, ular:

- a) do‘st orttirish, odamlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish sirlari haqida yozilgan bo‘lsin;
- v) mashhur va ko‘pqirrali insonlarning hayoti to‘g‘risida yozilgan bo‘lsin;
- s) fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari to‘g‘risida yozilgan bo‘lsin.

23. Muzika sohasida qobiliyatim bo‘lganda edi:

- a) dirijyor bo‘lgan bo‘lardim;
- v) bastakor bo‘lardim;
- s) qo‘shiqchi bo‘lardim.

24. Istardimki:

- a) qiziqarli bir konkurs o‘ylab topib, uning rejasini tuzsam;
- v) biror bir konkursda g‘olib chiqsam;
- s) o‘zim konkurs tashkil etib uni olib borsam.

25. Birinchi navbatda bilishim zarur:

- a) nima ish bajarishim kerakligini;
- v) maqsadga erishish yo‘llarini;
- s) maqsadga erishish uchun atrofdagi odamlardan qanday foydalanish kerakligini.

26. Inson shunga intilishi kerakki:

- a) boshqalar undan xursand bo‘lsinlar;
- v) unga buyurilgan ish, avvalo, vijdonan, chin ko‘ngildan bajarilsin;
- s) qilgan ishi uchun u hech kimdan gap eshitmasin.

27. Bo‘sh vaqtimda yaxshi dam olaman:

- a) do‘stlarim bilan suhbatlashganda;
- v) qiziqarli filmlar tomosha qilib, hordiq chiqarganda;
- s) o‘zim sevgan ish bilan mashg‘ul bo‘lganda.

Shaxsning nizoli vaziyatlarga munosabat so‘rovnomasi

Ushbu metodika yordamida shaxsning hamkorlikka yoki raqobatga moyilligi, murosaga (kompromiss, yon bosishga, yo‘l berishga) tayyorligi, nizolardan qochishi yoki ularni keskinlashtirishga intilishi kabi sifatning namoyon bo‘lish darajasini aniqlash mumkin. Shuningdek, mazkur metodika jamoa har bir a‘zosining hamkorlikdagi faoliyatiga ijtimoiy — psixologik moslashuvchanlik darajasini baholash imkoniyatlarini ham beradi. Bu metodika yordamida turli guruhlardagi o‘zaro munosabatlar xususiyatlari o‘rganiladi. . Sinaluvchiga ko‘rsatma.

«Sizning e‘tiboringizga quyida keltirilgan 30 juft mulohaza (tasdiqlar)ga javob berish taklif etiladi. Ularning har biri sizning nizoli, munozarali va tortishuvli vaziyatlardagi (biron bir kishi, suhbatdoshingiz bilan bo‘ladigan) tipik hulqingizga ozmi —ko‘pmi mos keladi. Har bir tasdiqlar juftidan albatta bittasini, sizning hulkingizga mosini («a» yoki «b» ni) tanlab javob bering.

So‘rovnoma matni

1. a) Men, gohida unga, tortishuvli masalalarni hal qilish uchun mas‘uliyat, javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga imkon beraman.
b) Munozara, tortishuvli vaziyatlarni muhokama qilishda, men dastavval, bizlar nima masala yuzasidan kelisha olmayotganimizga emas, balki nimada har ikkalamiz ham kelisha olishligimiz mumkinligiga e‘tiborni karatishga harakat kilaman.
2. a) Men murosali (kompromiss) yechimlarni topishga harakat kilaman.
b) Men nizoli vaziyatlarni uning ham va o‘zimning ham barcha manfaatlarimizni xisobga olgan holda hal qilishga intilaman.
3. a) Men odatda o‘zim xohlaganimga erishishga qat‘iy intilaman.
b) Gohida men uning manfaatini deb, o‘z manfaatimdan voz kechaman.
4. a) Men murosali (kompromiss) yechimlarni topishga yo‘l topaman.
b) Men uning hissiyotini, kechinmalarini ko‘rmaslikka harakat kilaman.

5. a) Tortishuvli vaziyatlarni yumshatar ekanman, men har doim undan yordam, madad, dalda topishga jazm etaman.
b) Men behuda zo'riqlardan qutulish uchun nima lozim bo'lsa hammasini ado etaman.
6. a) Men o'zim uchun bo'ladigan ko'ngilsizliklardan qochishga harakat qilaman.
b) Men o'zim xohlagan narsaga, o'z xohlaganimga erishishga harakat qilaman
7. a) Men tortishuvli masalalarni hal etishni boshqa kunga qoldirishga harakat qilaman, chunki uni keyinchalik batafsil, bafurja hal kilsa bo'ladi.
b) Boshka biron bir nimaga erishish uchun, nimanidir boy berish mumkin deb hisoblayman.
8. a) Men odatda, o'zim xohlagan narsaga erishish uchun qat'iy intilaman.
b) Men avvalo barcha tortishuvli masalalar va muhokama qilayotgan muammolar nimalardan iborat ekanligini aniqlab olishga intilaman.
9. a) Men yuzaga kelgan qandaydir kelishmovchiliklar tufayli har doim ham hayojonlanaverish kerak emas deb hisoblayman.
10. a) Men o'z bilganimga erishish uchun qat'iy intilaman.
b) Men o'zaro kelishimli qarorga kelishga harakat qilaman.
11. a) Men munozara qilinayotgan muammolar va tortishuvli masalalar nimalardan iborat ekanligini ochiq —oydin aniqlab olishga intilaman.

b) Men uni tinchlantirishga va shu bilan o'zaro munosabatlarimizni saqlab qolishga chora qidiraman.
12. a) Men ko'pincha nizolarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan holatlardan qochishga harakat qilaman.
b) Men agar u menga ham shunday munosabatda bo'lsa, unga qandaydir masalalar bo'yicha o'z fikrida qolish imkonini beraman.
13. a) Men o'rtacha, teng vaziyatni, holatni taklif qilaman.
b) Hammasi men aytgandek bo'lishini talab qilaman.
14. a) Men unga o'z nuqtai nazarimni ma'lum qilaman, undan bu haqdagi qarashlarini so'rayman.
b) Men unga o'z holatim, nuqtai nazarim mantiqini, mazmunini va o'z qarashlarim afzalligini isbotlashga intilaman.
15. a) Men uni tinchlantirishga va munosabatlarimizni saqlab qolishga harakat qilaman.
b) Men, kelishmovchilik, zo'riqlardan qochish uchun zarur bo'lgan hamma narsani qilaman.
16. a) Men uning hissiyotiga, nafsoniyatiga tegib ketmaslikka imkon topaman.
b) Men odatda, uni o'z nuqtai nazarimning abzalligiga ishontirishga harakat qilaman.
17. a) Men odatda o'z bilganimga erishishga qat'iy intilaman.
b) Men, bexuda zo'riqlash, tortishuvlardan qutulish uchun hamma narsani qilishga intilaman.
18. a) Agar, shu uni baxtiyor qilsa, unda men unga o'z fikrida qolishiga, o'z fikrini himoya qilishiga imkon beraman.
b) Agar u ham menga shunday munosabatda bo'lsa, men unga o'z fikrida qolish imkoniyatini beraman.
19. a) Men avvalo, barcha munozara qilinayotgan muammo va tortishuvli nimadan iborat ekanligini aniqlab olishga intilaman.
b) Men tortishuvli masalalarni boshqa galga qoldirishga va shu bilan keyinchalik uni batafsil hal qilishga intilaman.
20. a) Men, bizlarning kelishmovchiligimizni zudlik bilan yengib o'tishga intilaman.

- b) Men, ikkalamiz uchun ham foyda va zararning eng maqbul variantini topishga harakat qilaman.
- 21. a) Munozara olib borar ekanman, men unga e'tiborli bo'lishga harakat qilaman.
- b) Men har doim ham muammoni to'g'ridan — to'g'ri hal qilishga intilaman.
- 22. a) Men, u bilan o'zim oramizdagi o'rtacha vaziyatni topishga harakat qilaman.
- b) Men o'z nuqtai nazarimni himoya qilaman.
- 23. a) Odatda, men har birimizning istaklarimizni qondirilishini o'ylayman.
- b) Gohida unga tortishuvli masalani hal qilish uchun masuliyatni o'z zimmasiga olishiga imkon beraman.
- 24. a) Agar o'z nuqtai nazari juda muhim bo'lsa, unga imkon berishga yo'l qidiraman.
- b) Men uni kelishishga ko'ndirishga harakat qilaman.
- 25. a) Men uni xaqligimga ishonitirishga harakat qilaman.
- b) Munozaralar olib borish vaqtida, men uning qiziqishlariga etiborli bo'lishga intilaman.
- 26. a) Men o'rtacha nuqtai nazarni taklif qilaman.
- b) Men, deyarli har ikkalamizning qiziqish, manfaatlarimizni qondirishga harakat qilaman.
- 27. a) Men ko'pincha tortishuvlardan qochishga imkon topaman.
- b) Agar uni baxtiyor qiladigan bo'lsa, uning o'z fikrida qolishiga imkon beraman.
- 28. a) Odatda, men o'z bilganimga erishishga qat'iy intilaman.
- b) Vaziyatni yumshatar ekanman, men odatda u ham meni qo'llab quvvatlashi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni topishga harakat qilaman.
- 29. a) Men o'rtacha nuqtai nazarni taklif etaman.
- b) Men, yuzaga kelgan kelishmovchiliklar tufayli, har doim ham xijolat bo'laverishga xojati yo'q deb, o'ylayman
- 30. a) Men uning izzat nafsiga tegib ketmaslikka chora qidiraman.
- b) Men tortishuvda doimo ikkalamiz birgalikda muvaffaqiyatga erishishimiz mumkin bo'lgan nuqtai nazarda.

O'qituvchi shaxsiy fazilatlarini o'rganish so'rovnomasi

(R.B.Kettellning 16 omilli shaxsni o'rganish so'rovnomasi)

Yo'riqnoma: hurmatli tekshiriluvchi Sizga taqdim etilayogan savollarni

diqqat bilan o'qing va o'zingizga mos keladigan javoblar variantidan birini tanlang. savollarga javob berishda birinchi qayd etish fikri paydo bo'lgan javobni belgilashingiz Siz tomondan berilgan eng ijobiy javob bo'ladi. Savollar ustida ortiqcha fikr muloxaza yuritmasdan birinchi paydo bo'lgan fikringizni qayd eting.

Savollarga javob berishda ularning sizning fikringizva xatti-harakatingizga mos tarzda "ha" yoki "yo'q" (ba'zi savollarga savolnomada keltirilgan "a" yoki "yo'q" javoblardan birini tanlash orqali) tarzda yoki javob berishda ikkilanganda esa "?" ifodasi orqasi javobingizni maxsus blanka savollarning tartib raqamiga mos ravishda belgilashingiz mumkin.

1. Siz boshqalarning talablari va muhitga yengil moslasha olasizmi? – "Ha", "Yo'q"
2. Sizda uyqu holatida gaplashish hollari uchrab turadimi? "Ha", "Yo'q"
3. Siz o'zingizni ba'zi bir munosabatlarda boshqa kishilardan yuqoriroq. deb hisoblaysizmi? – "Ha", "Yo'q"
